

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

5141100 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

ISKANDAROVA LAYLO SAPARBAEVNA

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI SO‘Z

MA‘NODOSHLARI BILAN BOYITISH

mavzusidagi

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2017

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek tili kafedrası yig‘ilishining 2017-yil «___»
_____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	p.f.n. Sh.Yuldasheva
Ilmiy rahbar:	p.f.n.Sh.Bo‘ronova
Bitiruvchi:	L. Iskadarova

Iskandarova Layloning „ Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini so‘z ma‘nodoshlari bilan boyitish “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan „ _____” ball („ ____%”) qo‘yildi.

„ _____” _____2017-yil

DAK kotibasi:

U. Ibragimova

**MAVZU: ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI SO'Z
MA'NODOSHLARI BILAN BOYITISH**

REJA:

KIRISH

**I BOB. ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA SO'Z MA'NODOSHLARI
USTIDA ISHLASH-ILMIY METODIK MUAMMO**

1. Ona tili ta'limi jarayonida so'z ma'nodoshlari ustida ishlashning metodik zaruriyati
2. «So'z sinonimlari» va «so'z ma'nodoshlari» tushunchalari haqida
3. Tadqiqot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-pedagogik adabiyot tahlili
4. Ona tili ta'limi jarayonida so'zning ma'nodoshlari ustida ishlash-yaxlit metodik tizim

**II BOB. 5-7 SINFLARDA O'QUVCHILAR NUTQINI SO'Z
MA'NODOSHLARI BILAN BOYITISH IMKONIYATLARI**

1. «Sintaksis va punktuatsiya» bo'limini o'qitishda o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish
2. «Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» bo'limini o'qitishda so'z ma'nodoshlari ustida ishlash
3. «Morfologiya va orfografiya» bo'limini o'qitishda so'z ma'nodoshlari ustida ishlash

**III BOB. MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASHDA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALAR TADBIQI**

1. So'z ma'nodoshlari ustida ishlashda o'yin texnologiyalarning ahamiyati
2. Ona tilidan bir soatlik dars ishlanma

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Ona tili ta'limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi bilan baholanadi.

Yoshlarda yuqori darajada rivojlangan og'zaki va yozma nutq o'z-o'zidan shakllanmaydi, albatta. Bu birinchi navbatda o'quvchining so'z zaxirasi, tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarni bilish darajasi bilan chambarchas bog'langan. Chunki so'z boyligiga yetarli ega bo'lmagan shaxs fikrni to'liq, ixcham va ravon ifodalab bera olmaydi.

Tilimizda **so'z boyligi** haqida gapirar ekanmiz, sinonim so'zlar uning eng salmoqli qismini tashkil etishini ta'kidlash joiz. Maktab o'quvchisi tilimizning benihoya boy xazirasi sanalmish sinonim so'zlardan o'rinli foydalanmay turib, nutqning ta'sirchan, go'zal va jozibali bo'lishiga erisha olmaydi.

O'zbek tili o'qitish nazariyasi va usuliyati fanida **o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish** masalasi yangilik emas, albatta. Bu muhim masala respublikamizning yirik metodist olimlari A.G'ulomov, K.Qosimov, R.Abdulahatova, G'.Azizov, M.Abdurahimova, T.Ziyodovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Garchand bu ishlarda o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish maxsus ilmiy tadqiqot ob'ektiga aylanmagan bo'lsa-da, ta'lim jarayonida sinonim so'zlar ustida ishlashning samarali yo'llari xususida foydali fikrlar bayon qilingan. Mazkur muammo G'ayrat Azizovning nutqini sinonim so'zlar bilan boyitish» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida ko'tarilgan, ammo sinonim so'zlar ustida ishlash tilning boshqa bo'limlari, chunonchi, «Fonetika», «Morfologiya» bo'limlarini o'rganishda bu masala diqqat-e'tibordan chetda qolgan. Shuni unutmazlik lozimki, so'zning ma'nodoshlari ustida ishlash ona tilining barcha bo'limlari tarkibiy qismiga aylanmas ekan, bu murakkab ilmiy muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga umid bog'lab bo'lmaydi.

O'rta umumta'lim maktablarining 5-7-sinflarida til bo'limlarini o'rganish jarayonida sinonim so'zlar ustida ishlash o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitishning samarali yo'llari, vosita va usullarini aniqlash ilmiy tadqiqotimizning **asosiy maqsadini tashkil etadi**.

Ona tilining «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya» bo'limlarini o'rganishda so'zning ma'nodoshlari ustida ishlash ilmiy tadqiqotimizning ob'ekti qilib belgilandi. Ona tilining «Sintaksis» bo'limini chetlab o'tdik. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur bo'lim ko'proq o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga emas, ularning besotida mavjud bo'lgan so'zlarni faollashtirish, ularni nutq sharoitida qo'llash masalalari bilan shug'ullanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy va ma'naviy islohat maktab ona tili ta'limi oldiga ham yangi maqsad va vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Maktab ona tili ta'limiga sarflanayotgan juda katta miqdordagi mablag' iqtisodiy harajat o'quvchilar bilimining puxtaligi, amaliyligi bilan o'lchanadi. Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar inson nutqiga e'tiborni har tamonlama oshirishni, o'z fikrini o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda to'g'ri va ravon ifodalashni tobora ko'proq hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'yimoqda.

Yoshlarda yuqori darajada rivojlangan og'zaki va yozma nutq o'z-o'zidan shakllanmaydi, albatta. Bu birinchi navbatda o'quvchining so'z zaxirasi, tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarni bilish darajasi bilan chambarchas bog'langan. Chunki so'z boyligiga yetarli ega bo'lmagan shaxs fikrni to'liq, ixcham va ravon ifodalab bera olmaydi.

Tadqiqotimizning predmeti esa yuqorida tilga olingan til bo'limlarini o'tishda so'zning ma'nodoshlari ustida ishlashning imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotimizning belgilangan maqsadiga asoslanib quyidagi ilmiy **farazlar ilgari suriladi:**

- ona tili bo‘limlarini o‘rganishda muttasil ravishda so‘zning ma‘nodoshlari ustida ish olib borilsa;

- o‘rta umumta‘lim maktablarida ona tili darslarida «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya» bo‘limlarini o‘rganishda o‘quvchilarda so‘zning ma‘nodoshlariga ehtiyoji yuzaga keltiradigan ijodiy-amaliy topshiriqlar silsilasidan unumli foydalanilsa;

- sinonim so‘zlarning ma‘no bo‘yog‘i olib boriladigan ishlar kuchaytirilsa;

- ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda so‘zning ma‘nodoshlariga ehtiyoj vujudga keltirilsa;

- o‘zbek tilining izchil kursiga kirish, «Fonetika», «Leksikologiya», «Morfologiya»ni o‘rganishda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitish, sinonim so‘zlardan foydalanish mahoratini kengaytirish imkoniyatlari topilsa, shak-shubhasiz, o‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish mahoratlari kengayadi.

Tadqiqotning belgilangan maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalarni bajarishni** mo‘ljalladik:

- o‘rta umumta‘lim maktablarida o‘quvchilar nutqining so‘z ma‘nodoshlari bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlash va uni ilmiy tahlil qilish;

- ona tili o‘qituvchilari ish amaliyotida so‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlashning mavjud ahvolini tekshirish, shu borada o‘qituvchilar to‘plangan boy tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish;

- tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

- ona tilining «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya» bo‘limlarini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitishning samarali yo‘llari, vosita va usullarini aniqlash;

O'quvchilarda so'zning ma'nodoshlariga ehtiyojni yuzaga keltiradigan ijodiy-amaliy topshiriqlar silsilasini ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan ijodiy-amaliy topshiriqlarni eksperimental sharoitda sinovdan o'tkazish, uning natijasini ilmiy tahlil qilish;

- ona tili o'qituvchilari uchun o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan karakterlanadi:

- ona tilining «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya» bo'limlarini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish, bu so'zlardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanishning yaxlit tizimi ishlab chiqildi hamda u eksperimentlar sharoitda sinovdan o'tkazildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risidagi Qonuni, o'zbek maktablarida ona tili ta'limi Kontseptsiyasi (1993-yil 15-dekabr), Sharq faylasuf pedagoglarining nutq odobi, so'z sehri, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish madaniyati xususidagi qarashlari, taniqli filolog va pedagog olimlarning ona tili ta'limi mazmuni yangilash, o'quvchilar nutqini rivojlantirish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish to'g'risidagi ilmiy-pedagogik asarlari **tadqiqotimizning metodologik asosni** tashkil etadi.

O'zbek tili sinonimiyasi o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitishga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, ona tili o'qituvchilarining so'z ma'nodoshlari ustida ishlash yuzasidan to'plangan boy tajribasini o'rganish va umumlashtirish; so'rash (suhbat, intervyu, anketa savol-javoblar va hakazo); ona tili mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish, o'quvchilarning aylanma hamda yozma ish daftarlarida bajargan mashqlarini tahlil qilish; pedagogik eksperiment; olingan natijalarni matematik hisoblash va umumlashtirish-ilmiy tadqiqotimizning metodlari bo'lib hisoblandi.

Ilmiy tadqiqot ishlari uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bob: Bu bosqichda tadqiqot mavzusiga oid yozilgan ilmiy-pedagogik adabiyot hamda ona tili dastur va darsliklari tahlil etildi; 5-6 sinflarda «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya»ni o‘rganish jarayonida so‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlash jarayoni va imkoniyatlari kuzatilib tahlil etildi; ilmiy tadqiqot maqsadi, vazifalari, metodologik asosi va metodlari aniq belgilab olindi.

Ikkinchi bob: Bu bosqichda ona tilining «Fonetika», «Leksikologiya», «Morfologiya» bo‘limlarini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitish yo‘llari, vosita va usullari ishlab chiqildi; o‘quvchilarda so‘zning ma‘nodoshlariga ehtiyoji yuzaga keltiradigan ijodiy-amaliy topshiriqlar silsilasi tuzildi. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda ona tili o‘quvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Uchinchi bob: Ma‘nodosh so‘zlar ustida ishlashda zamonaviy texnologiyalar tadbiqiga bag‘ishlanib bu bobda so‘z ma‘nodoshlari ustida ishlashda o‘yin texnologiyalarning ahamiyati, shuningdek ona tili darslarida so‘z ma‘nodoshlari ustida ishlash yuzasidan bir soatlik dars ishlanmaning to‘liq tafsilotlariga to‘xtaldik.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy qiymati quyidagilar bilan belgilanadi:

O‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va usuliyoti fanida o‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitishning o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘langan, biri ikkinchisining mantiqiy davomi sanalgan yaxlit tizimi belgilandi;

-ona tili o‘qituvchilari uchun so‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlash yuzasidan oson va qulay metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Malakaviy ishda keltirilgan xulosa va ona tili o‘qituvchilariga berilgan tavsiyalardan metodik qo‘llanmalar yaratishda, universitet hamda pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlari talabalari uchun ona tili o‘qitish nazariyasi hamda uslubiyati fanian maxsus kurs va seminar mashg‘uloti o‘tkazishda o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari tinglovchilariga

ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda, shuningdek, ona tilidan yangi dastur va darsliklar yaratishda unumli foydalanilsa bo'ladi. Tadqiqot natijasi maktab o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» ni yaratishda, shuningdek, maktab o'qituvchilari uchun tavsiyanomalar tayyorlashda ancha qo'l keladi.

I BOB

ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA SO'ZNING MA'NODOSHLARI USTIDA ISHLASH – ILMIY-METODIK MUAMMO

1. So'z ma'nodoshlari ustida ishlashning metodik zaruriyatlari

Respublikamizda tez sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy va ma'naviy islohat maktab ona tili ta'limi oldida ham tamomila yangi maqsad va vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir sohada sarflanadigan mehnat uning natijasi bilan baholanadi. Maktab ona tili ta'limiga sarflanayotgan juda katta miqdordagi mablag' iqtisodiy harajat o'quvchilar bilimining puxtaligi, amaliyligi bilan o'lchanadi. Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar inson nutqiga e'tiborni har tamonlama oshirishni, o'z fikrini o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda to'g'ri va ravon ifodalashni tobora ko'proq hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'yimoqda.

«Ona tili, - deb qayd qilinadi «O'zbek maktablarida ona tili o'qitish Kontsepsiyasida», - o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat». ¹

Maktabda ona tili o'qitishning vazifasi ham bevosita ana shu maqsaddan kelib chiqadi.

Ona tili fani:

-o'zbek tilining «Fonetika», «Leksikologiya» va «Grammatika» bo'yicha yozma va og'zaki shakllarda keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlarni;

-o'zbek tili imlosi, talaffuzi yozma nutqda tinish belgilarni ishlatishning asosiy qoidalarini;

¹ O'zbek maktablarida ona tili ta'limi Kontsepsiyasi. Toshkent, – 1993, – 12 b.b

-ona tilining xazinasini bo‘lmish turli xildagi lug‘atlardan keng foydalana olishni;

-ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini yuritish ko‘nikmasini;

-maktabda o‘qitiladigan fanlar, moddiy borliqdagi narsa-buyum, voqea-hodisalar orasidagi bog‘lanishlarni his eta olish va ularni ifodalay olishni o‘z ichiga qamrab olishi kerak.

O‘zbek tilshunosligi tarixida sinonimlar mavzusini yoritishda olimlardan S.Isamammedova, Sh.Rahmatullaev, D.Ya.Pinjasov, R.Rasulov, S.Usmonov, A.Hojiev, E.Tojievning xizmati katta.

«Sinonimlar borliqdagi ayni bir predmet, yoki hodisani har xil belgilarga ko‘ra yoki har xil nuqtai nazardan ifodalaydigan bir turkumga doir so‘zlardir»

«Sinonimlar-talaffuzi har xil, birlashtiruvchi ma‘nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan qo‘shimcha ma‘no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanish kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma‘no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar gruppasi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin: gul, chechak, boplamoq, qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o‘xshatmoq, o‘rinlatmoq, kelishtirmoq, do‘ndirmoq, mondalamoq, qiymoq, eshmoq

Ma‘lumki, o‘quvchi butun maktab hayoti davomida o‘z nutqini boyitish, uni takomillashtirish ustida ish olib boradi. Bu avvalo tilimizning boy leksik imkoniyati-ma‘nodosh so‘zlarni mukammal o‘rganish va ularni nutqiy faoliyatda qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning so‘z zaxirasini so‘zning ma‘nodoshlari hisobidan boyitish, ayniqsa, 5-7-sinflarda o‘zbek tilining «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya» bo‘limlarini o‘rganish jarayonida ancha qulay va oson kechadi. Bu birinchidan, shu sinflarda o‘qiydigan o‘quvchilarning yosh xususiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, yuqorida tilga olingan bo‘limlarning ichki imkoniyati bilan chambarchas bog‘langan.

O'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish va sinonim so'zlardan nutqiy faoliyatda foydalanish malakalarini shakllantirish ko'proq o'smirlik davriga to'g'ri keladi.

O'rta maktab yoshi – o'smirlik davri 11-15 yoshdagi bolalik davrini o'z ichiga qamrab oladi. Psixologik adabiyotlardan keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda bu yoshda o'quvchilarning hayoli, tafakkuri, qiziqishi, xotirasi kichik maktab yoshidagi davriga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli o'laroq, o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganligini bildiradi.

Maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy va nuqtai nazardan yondashiladi. Bu yoshda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur qilish doirasi ham quyi sinflarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. 5-sinfga kelib o'quvchi o'z shaxsan kuzatmagan, ko'rmagan, ammo boshqalardan eshitgan voqea-hodisa haqida bemalol fikrlay oladi.

O'smirda to'g'ri mantiqiy fikrlarning rivojlanishida ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarga to'g'ri jumla tuzish, ravon mulohaza yuritish, fikrlash hamda to'g'ri yozishni o'rgatib boradi.

O'quvchilar adabiy asarlarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradilar. Ularda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarshi shakllanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida o'quvchilarda ko'proq so'zning ma'nosini bilish ehtiyoji kuchayadi. Ular so'zning bir yoki ikkita ma'nodoshi bilan chegaralanib qolmay, barcha ma'nodoshni bilib olishga qiziqadi. Berilgan ma'lum bir so'zning ma'nodoshlarini topishgina emas, balki butun boshli gap yoki matndagi har bir so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu yo'l

bilan matnning mazmunini ifodalaydigan tamoman yangi matn hosil qilishi mumkin.

O‘smirlik davrida so‘zning ma’no bo‘yog‘ini tushunish ham kichik maktab yoshiga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. 5-6-sinf o‘quvchilari «yuzi issiq», «chehrasi issiq», «diydori issiq», «ruxsori issiq», «turqi issiq», «basharasi issiq» birikmalaridan qaysi biri nutq uchun me’yoriy ekanligini bemalol farqlay oladi va nutq sharoitiga qarab ulardan o‘rinli foydalana oladi.

O‘smirlik davrida til hodisalarini qiyoslash, o‘rganilayotgan til hodisalari o‘rtasida o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkoniyati ham ancha kengayadi. Biz pedagogik amaliyot davrida kuzatishlarimiz davomida 5-sinf o‘quvchilariga – ma’nodosh so‘zlar, frazeologik birikma va tasviriy ifodalar o‘rtasida qanday farq bor – degan savol bilan murojaat qilganimizda, ular frazeologik birikma ham, tasviriy ifoda ham u yoki bu so‘zning ma’nodoshi hisoblanadi – degan javobni qaytarishdi va pilla – kumush tola: televizor – zangori ekran; ko‘mir - qora oltin; gaz-zangori olov; qo‘rqdi-kapalagi uchdi: beozor - qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan kabilarning o‘zaro ma’nodosh ekanligini isbotlashga urinishdi.

Maktab o‘quvchilari lug‘at boyligining salmoqli qismini sinonimlar tashkil etmog‘i lozim. Sinonimlar nutqqa go‘zallik baxsh etadi, har xil so‘zlarni takror qo‘llashdan saqlaydi, fikrni badiiy ifodalash imkoniyatini ko‘paytiradi. «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» ga kiritilgan sinonimik uyaning miqdori statistik ma’lumotlarga ko‘ra 800 dan ziyod So‘zlarning umumiy soni esa uch mingdan ko‘p. Bularni o‘quvchilar lug‘atiga olib kirish uchun ona tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda ular ustida ishlashga to‘g‘ri keladi. Faqat shugina emas, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini shakldosh so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, frazeologik iboralar, xalq maqoli va hikmatli so‘zlar ustida ishlash jarayonida ham boyib borishi lozim.

O'smirlik davrida o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlay olish darajasi ham ancha yaxshilanadi. Ularda sabot va matonat bilan o'quv qiyinchiliklarini bartaraf etishga harakat kuchayadi.

Professor A.G'ulomov keltirgan ma'lumotga qaraganda, 5-7-sinflarda o'quvchida ijodiy hayol tarkib topa boshlaydi. Ijodiy harakterdagi mustaqil ishlarda badiiy tasvirdan ancha tuzukroq foydalana boshlaydi Masalan: 5-sinfda «Oddiy va badiiy tasvir» mavzusi o'tilgandan keyin o'quvchilarga badiiy tasvirdan foydalanib «Paxta dalasida» mavzusida tasviriy insho yozish topshiriladi. Namuna sifatida²⁴ –sonli maktabning 5-sinf o'quvchi yozgan inshoni keltiramiz.

«Paxta oq libosga o'ralganday ko'rinadi. Oppoq paxta dalalari inson ko'zini qamashtiradi. Hozirgi kunlarda mo'l hosilni tezroq yig'ib-terib olish uchun qizg'in kurash olib borilmoqda. Ayniqsa, zangori kemalar kolxozchilarimizning mehnatini ancha yengillashtiradi. Mening opam ham mashinada paxta terayapti. U hozirgacha o'z zangori kemasi bunkeridan 95 tonna paxta to'kdi. Mavsum oxirigacha opam 150 tonna oq oltin terishga ahd qilgan. Men ham kelajakda opamdek mexanizator bo'lmoqchiman. Hozir oila a'zolarimizning hammasi paxtazorda mehnat qilyapti. Men darsdan so'ng terimchilarga yordamlashaman. Har kuni 25-30 kg paxta teryapman. Sinfdozlarimning hammasi terimchilarga yaqindan turib yordam bermoqda»

Aytilgan fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'smirlik davrida o'quvchilarda ijodiy fikrlash, narsa, voqea-hodisalarni badiiy tasvirlashga intilish, fikrni bayon qilishda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi ancha takomillashadi. Eng muhimi, bu davr o'quvchi uchun o'z nutqini yangi so'zlar bilan boyitib borishning hal qiluvchi pallasi hisoblanadi.

O'quvchi nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitishda til bo'limlarining ichki imkoniyatlari ham hal qiluvchi omil sanaladi. Ma'lumki fonetika, leksikologiya, morfologiyani o'rganishda o'quvchi tilning asosiy xomashyosi so'z bilan ishlaydi. Bu bo'limlarni o'rganishda muayyan bir so'zga ma'nodosh so'z

topish, soʻzning maʼno boʻyogʻi ustida ishlash, maʼnodosh soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib, u yoki bu soʻzning qoʻllanilishini asoslash, berilgan gap va matnlarni tahlil qilib takror qoʻllanilgan soʻzlarni maʼnodoshlari bilan almashtirish eng samarali ish usulidir.

Ona tili taʼlimi jarayonida oʻquvchi nutqini soʻzning maʼnodoshlari bilan boyitish, uni nutqiy faoliyatga tayyorlash oʻta muhimdir. Shuni unutmaslik lozimki, oʻquvchi nutqning rang-barangligi, jozibadorligi, taʼsirchanligi, yoqimlilik, sofligi va nafisligi uning tilimizdagi maʼnodosh soʻzlarni nechogʻlik bilish darajasiga bogʻliqdir.

2. «Soʻz sinonimlari» va «soʻz maʼnodoshlari» tushunchalari haqida

Uzoq tarixlarga ega boʻlgan tilshunoslik fani oldida har bir davr oʻziga xos vazifa va maqsad qoʻyadi. Tilshunoslik fanining oʻziga xos maqsad va vazifalari soʻzlovchi nutqining toʻgʻri, ravon, taʼsirchanligini taʼminlash, til ifoda vositalarini aniqlash hamda uni soʻzlovchilar ongiga singdirishning qulay va samarali usullari ishlab chiqishdan iboratdir. Tilshunoslik fani inson tafakkuri, borliqni inson tomonidan tavsif va tasnif etilishi bilan aloqador boʻlgan minglab muammoni oʻz oldiga maqsad qoʻyadi va har bir fan tilshunoslik yutuqlaridan oʻz maqsadiga mos ravishda foydalanadi. Keyingi asarlarda tilshunoslik inson ongida borliqning modellashtirilishi muammolari bilan koʻp shugʻullanadi va kibernetikaning rivojlanishiga turtki boʻldi. Kompyuter bilan ishlaydigan programmalardagi ramziy belgilar majmuasining «til atamasi» bilan nomlanishi bejiz emas. Kompyuter «Beysik», «Fortran», «Alvid» kabi oʻnlab tillarda oʻqiydi va yozadi. Bular ham tillardir. Lekin kompyuter tillarini tuzishda til birliklari oldiga qoʻyadigan talablar mantiq, falsafa, ruhshunoslik kabi fanlar tildan foydalanganda lisoniy birliklar oldiga qoʻyadigan talablardan tubdan farq qiladi. Jumladan XX asr oʻrtalarida Evropada keng tarqalgan semantik filosofiyada (asoschisi Karnap) til birliklari batamom boshqacha tushuniladi. Haqiqatan ham mustahkam tanadan shoxlanuvchi mevali yoki mevasiz, odatda baland boʻyli oʻsimlik, masalan, uch ming tabiiy

insoniy tilda uch ming xil shakl bilan ifodalanishi mumkin. Chunonchi, turkcha ag‘ach; tojikcha daraxt, o‘zbekcha yog‘och, ruscha derevo, nemischa dirbaun, inglizcha, fransuzcha, italyanacha v.h. Semantik filosofiya turli tilga mansub bo‘lgan va shaklan bir-biriga mutlaqo o‘xshamagan bunday til birliklarining g‘oyaviy asosi-mazmun zaminini bir xil deb olar ekan, hech qanday xatoga yo‘l qo‘ymaydi, chunki haqiqatan ham, uch ming tabiiy insoniy tilda uch ming shaklda mavjud bo‘lgan bu so‘zlarning negizi borliqdagi zoti birdir: borliqda inson ongidan tashqarida mavjud bo‘lgan «daraxt»ga uch mingta ko‘zgu yo‘naltirilganda ko‘zgulardan tashqarida bo‘lgan zot uch ming turda tahlillanadi. Ko‘zgudagi uch ming shaklni xilma-xil deb tan oluvchilar ham (chunki bu shakllar bir-biridan keskin farq qilishi mumkin) bu shakllarning hammasini bir zotning turli ko‘rinishi sifatida talqin etuvchilar ham haqdir. Tilshunoslik fanida ham xuddi shunday. G.Shteyntal, V.Vundt, A.A.Potebnya kabi tilshunoslik daholaridan boshlanuvchi psixolingvistika (ruhiy tilshunoslik) nazariy asoslarida umumiy so‘z tushunchasi yo‘q. Chunonchi, Potebnya A. A. va boshqalar «tilda qancha so‘z bor?» yoki «rus tilida «derevo» so‘zi nechta» kabi so‘roqni bema’ni deb biladi va yozma, og‘zaki matnlarda «derevo» so‘zi necha milliard marta qo‘llanilgan bo‘lsa, rus tilida shuncha marta «derevo» so‘zi bor deb aytadi. Chunki har nutqiy qo‘llanishda «derevo» so‘zi o‘ziga xos, betakror xususiyatga egadir.

Bu ikki yo‘nalishda-semantik filosofiya va psixolingvistikada-lisoniy birliklarga bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan ikki xil fikrni ko‘rayapmiz: Semantik filosofiyada uch ming tabiiy insoniy tilning o‘ziga xosligi inkor etilib, uch ming so‘z bir me‘yorga birlashtirilsa, ruhiy tilshunoslikda bir tilning bitta so‘zning umumiyliги inkor etiladi. Kim haq, kim nohaq degan savol tug‘iladi. Tilshunosligimizda keyingi vaqtlarda qo‘llanaverib siyqasi chiqqan bo‘lsa ham «Lison - ut tayr» dagi «Fil va ko‘rlar» yoki J.Rumiy keltirgan «Fil tavsifchilari va Qorong‘u xona» hikoyasini eslatishimiz zarur. Chunki semantik filosofiya nuqtai nazaridan turgan shaxs ham haq (uch ming tildagi so‘z, uch ming ko‘zgudagi

shakl borliqdagi bitta narsaning in'ikosidir). Xuddi shunday ruhiy tilshunoslarimiz ham haqdir. Chunki masalan, daraxt-daraxt-daraxt deb uch yoki to'rt marta yozsak, har bir daraxtning o'ziga xosligi bor. Chunonchi, keltirgan misollarda birinchi «daraxt» so'zi qatorning boshidan 5.3 sm ichkarida bo'lsa, ikkinchi «daraxt» so'zi undan 6,2 sm ichkariroqda joylashgan zomonda ham ikkinchi daraxt birinchi daraxt so'ziga nisbatan bir necha soniya keyinroq vujudga kelgan.

Hozirgi zamon tilshunoslik fani o'zining til va nutq tilining ichki va tashqi tizimlarini farqlash bilan psixolingvistika va semantik filosofiyadan ayni bir xil til birliklariga tom ma'noda zid yondashishni birlashtiradi va ilmiy tushuntiradi. Chunonchi, sistemaviy tilshunoslikda tilda har bir leksemaning denotativ (atov, referental) ma'nosi va uning lisoniy qiymati-muayyan tildagi leksemalar tizimidagi o'rni va ma'nosi farqlanadi. Shu bilan semantik filosofiyada xilma-xil tillardagi ayni bir tushunchani aks ettirishga xizmat qiladigan leksemalarni birlashtirish va har bir tildagi leksemalarni boshqa tildagi leksemadan farqlash asoslari ochib beriladi; ruscha «derevo», o'zbekcha «daraxt» leksemalarining denotativ ma'nosi bir xil, lekin lisoniy qiymati va moddiy qobig'i har xil (o'zbekcha olma o'tqazdik, ruscha mo's posadili yablonyu. Tovoqda ikkita olma; Na blyude dva yabloka) Sistemaviy tilshunoslikda lison va nutq farqlanadi va nutqiy birlik) xususiyat sifatida betakror deb tan olinadi. Bu esa psixolingvistiklarning «har bir so'z betakroridir»-degan yondashuvi bilan uyg'undir.

Shuning uchun aytishimiz mumkinki, har bir fan, har bir yo'nalish tilshunoslik ilmining birliklaridan o'z ehtiyojiga mos ravishda foydalaniladi va tilshunoslik tushunchalariga yondashishni o'z maqsad va talabi bilan uyg'unlashtiriladi. Bunday holni nafaqat semantik filosofiya va psixolingivistikada, balki matematika, biologiya, fizika, kimyo, kibernetika kabi fanlarda ham ko'ramiz. Shunday fan sifatida ona tili darsi ham tilshunoslik tushunchalaridan o'z ehtiyojlariga mos ravishda foydalanish lozim. Ona tili tadrisi tilshunoslik tushunchalariga bo'ysunishi emas, balki o'z ehtiyojiga mos ravishda

tilshunoslik tushunchalaridan foydalanishi va zarurat bo'lsa, o'z ehtiyojiga mos ravishda ularga yangicha mazmun va yondashuvi lozim. Ishimiz uchun ahamiyatli bo'lgan shunday tushunchalar sirasiga sinonim so'zlar (so'zning sinonimlari, leksik sinonim, sinonimik qator, leksik sinonimiya v.h.) parafraza, tasviriy ifoda, ma'noni tavsiflash usuli bilan ifodalash, ilmiy atama va ramziy belgi (ishora) kabilar kiradi. Ularning har birini alohida izohlaymiz.

1. Sinonimlar. Tilshunoslikda sinonimlar, ya'ni bir xil ma'noni turli shaklda ifodalovchi so'zlar bu fanning azaliy muammolaridan biridir. Chunki bir xil narsani nega turli xil tushunchalar bilan atash mumkin va aksincha, nega bitta so'z bir necha xil tushuncha atay oladi degan savol «Tavrot» da ham, «Qur'oni Karim» da ham qadimiy yunon faylasuflari, hind kohinlari, arab tilshunoslari tomonidan ham takror va takror munozara va munozaralar manbai bo'lgan.² Munozaralar sababini yangi davr tilshunosligida F.Sossyurning lisoniy birliklarining serqirraligi, S. Kartsevskiyning til birliklarining assimetrik dualizmi haqidagi ta'limoti ochib berdi. Shunga qaramay, asrimizning 50-90 yillarida o'zbek tilshunosligida va Yevropa tilshunosligida sinonimlarga bag'ishlab yozilgan ilmiy tadqiqot soni bir necha yuzni tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida lug'aviy sinonimlar sohasida A.Doniyorov, S.Isamuxamedova, F. Kamol, S.Mamatqulov, Ya.Pinxasov, N.Rajabova, Sh.Rahmatullaev, U.Tursunov, I.Qo'chqortoev, A.Hojievning xizmati benihoya katta. Ayniqsa, A.Hojievning mashaqqatli mehnatlari tufayli «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (1963, 1974) yaratildi. Yevropa va o'zbek tilshunosligida sinonimlar talqini masalasini o'rganib, shunday xulosaga keldikki, leksik sinonimlarni baholashda uch xil yondashish mavjud ekan.

1. Sinonimlarga ma'nolari bir xil, shakli har xil so'zlar tushuniladi.

2. Sinonimlar ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lib, shakli har xil bo'lgan so'zlardir.

² Zvegintsev A.A. Istoriya yazykaznaniya XIX – XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax chast 1. Moskva – Prosveteniye – 1964 str. 136-142.

3. Sinonimlar ma'no jihatidan o'xshash, shakl uslubiy bo'yoq va qo'llanish jihatidan farqli bo'lgan so'zlar.

Ko'rinib turibdiki, sinonimlarga har uch xil yondashishda ular orasidagi ma'naviy o'xshashlik va ma'lum turdagi shakliy hamda uslubiy farqlilik masalasi o'rtaga chiqadi. Leksik dublet va leksik variant tushunchalarining tilshunoslikka kiritilishi sinonim tushunchasiga birmuncha aniqlik kiritgan bo'lsa ham, bu masalani uzul-kesil hal etolmadi. Fanimizda keyingi yillarda so'zlararo ma'naviy munosabatlarning yangi ko'rinishi tavsif etilishi bilan sinonimlar muammosi yana ham chigallashadi. Chunonchi, tur va jins (giponimik) munosabat bilan bog'langan ot, ayg'ir, biya, baytal, saman, bedov, daraxt, tol, archa, terak, qayrag'och kabi yoki darajalanish munosabati bilan bog'langan va lug'atlarimizda ba'zan sinonim, ba'zan antonim sifatida beriladigan gulobi, pushti, qizg'ish, qizil, qirmizi, al, alvon, vayrona, kulba, xujra, uy, qasr, saroy, koshona v.h.kabi gradanomik qatoridagi so'zlar o'zaro sinonimmi degan masala o'rtaga qo'yiladi. Chunki giponimik qatorlarda ham, gradanomik qatorlarda ham va hatto partonimik guruhlar orasida ham ma'naviy o'xshashlik, bir-birini almashtirish hodisasi mavjud. Chunonchi: 1. Otiga mindi bedoviga mindi. 2. Qizg'ish mato gulobi mato pushti mato. 3. Daraxtni sindirma shoxini yoki tanasini kabilar nazarda tutiladi. Bundan tashqari tilimizda juz'iy lug'aviy sinonimlik mavjud. Chunonchi, oying tutilishi sabab va qonuniyatlarini Beruniy X asrdayoq ochgan edi (kashf etgan edi). Lekin eshikni ochdi va eshikni kashf etdi gaplaridagi ochdi va kashf etdi gaplaridagi ochdi va kashf etdi so'zlari tamoman boshqa-boshqa ma'no kasb etadi. Demak, tilshunoslik fanimizda ko'p semalilik (polisemantik) so'zlararo ma'naviy munosabatlarni o'rganish, to'liq va ju'ziy sinonimlarni farqlash yechilmagan muammo bo'lib qolmoqda.

Keyingi yillarda fanimizda lisoniy va nutqiy (matniy kontekstual) sinonimlarni farqlashga harakat etilmoqda, bu narsa xususan adabiyotda oshiq,

yor, ag‘yor, may, zohid, quyosh kabi poetik tushunchalarning har biri bir necha yuzlab nutqiy sinonimga ega ekanligi qayd etilmoqda.³

Lekin poetik ma‘rifiy ramzlardan biri bo‘lgan sevgili tushunchasini yor, jonona, dilbar, dilrabo, barno, sanam, mash‘uqa, layli v.h. kabi besh yuzga yaqin so‘z bilan atash sof matniy hodisa emas, balki o‘ziga xos ma‘lum bir tizim – poetik ma‘rifiy badiiy-adabiy tizimga xos va buni sof nutqiy hodisa deb bo‘lmaydi.

Agar yangi va eski (aeroplan, samalyot, tayyora, aeroport, tayyoragoh, tuman, rayon, nohiya) , adabiy va sheva (do‘pi, toqi, qalpoq, narvon, norbon, shoti), umumiste‘mol va chegaralangan (suv-N₂O, burcha <, pul-loy) so‘zlar orasidagi ma‘noviy o‘xshashlik va shakliy farq mavjudligini hisobga olsak, bu masalaning sinonimiya nuqtai nazaridan o‘rganilmaganligining guvohi bo‘lamiz.

Bulardan tashqari sinonimlarga uch yo‘nalishda yondashgan tadqiqotchilarimizning ishlarida sinonimik qator namunasi sifatida hech qanday izohsiz yuz, aft, bet so‘zlari keltiriladi, biroq ularning nosinonimligi hech narsa deyilmaydi. Vaholanki, «kitobning yuzi», va «kitobning beti» birikmalaridagi bu so‘zlarni sinonim deb atash mumkin emas. Shuning uchun xulosa qila olamizki, tilshunoslik fanimizda sinonimlar ilmiy muammosi bu tushunchadan amaliy maqsadlarda – nutq ehtiyojlarini qondirish ko‘nikmalarini shakllantirish va singdirish darajasi atroflicha tahlil va tavsif etilgan emas. Shuning uchun ona tili ta‘limi jarayonida o‘zbek tilshunosligi fanida shakllantirilgan ilmiy tushuncha sinonimlar tushunchasiga tayanadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini cheklagan va ularni noto‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lar edik. Mana shu bois ilmiy tadqiqotimizda tayanch nuqta sifatida lug‘aviy sinonimlar emas, «so‘zning ma‘nodoshlari» tayanch nuqtasiga asoslandik. «So‘zning ma‘nodoshlari» va sinonimlar (lug‘aviy sinonimlar) orasida qanday farq bor? Ma‘nodosh so‘zi va u ifodalaydigan tushuncha o‘quvchilarga ancha yaqin va tanish bo‘lib, ular tomonidan tez qabul qilinadi. Ma‘nodosh tushunchasi matn bilan bevosita aloqador

³ A.Navoiy. Fazallar (sharxlar. – Toshkent – Kamalak, 1991 – 173 b)

bo'lib, ma'lum bir matnda ayni bir narsa, belgi, harakat, holat, miqdorni turlicha atash vositasi majmuasini tashkil etadi. Chunonchi, quyidagi matnni olaylik.

1-matn: Sanobar Ahmedovna – mening opam, U ilg'or mexanizator. Zangori kema kapitani shu mavsumda 25 tonna paxta terdi. Opam oilamiz faxridir. Jamoa xo'jaligining «Hurmat taxtasi» dan ham ilg'or mexanizatorning surati o'rin olgan.

Ushbu matnda Sanobar Ahmedovna, opam, ilg'or mexanizator, u, zangori kema kapitani kabi so'z va so'z birikmalari shu matnda ayni bir tushunchani atab, nomlab kelayapti. Ona tili ta'limi jarayonida tilshunoslikning sinonimlar tushunchasiga tayansak, yuqorida ko'rsatilgan matnni umuman yarata olmaymiz. Zeroki, matnda Sanobar Ahmedovna, opam, ilg'or mexanizator, u, zangori kema kapitani singari so'zlar mutlaqo sinonim emas, balki shu matnda bir-birini bemalol almashtira oladigan so'z va so'z birikmalaridir. Chunki, ular ma'lum bir nutq sharoitida ayni bir narsani atab, nomlab keladi, nutq ravonli va uning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Shuningdek, so'z ma'nodoshlarining vazifasi so'z sinonimlarining vazifasidan ancha kengdir; so'zning matniy ma'nodoshlari sirasidan olmoshlar ham, parafrazalar ham, frazeologik birikmalar ham tur, jins, darajalanish, butun, bo'lak, munosabati bilan bog'langan so'zlar ham o'rin olganligi sababli ular nafaqat Ayni bir hodisani nomlab, atab keladi, balki matn tarkibiy qismlarining bir-biri bilan bog'lanishini ham mikro va makrotekstlar yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilar ongiga grammatik tushunchalarni singdirishdan iborat bo'lmay, balki nutq malalakalarini mukammallashtirishdan, nutq ravonligini ta'minlashdan iborat bo'lar ekan, ona tili tadrishisi matn ustida ishlash va uni tahlil etish jarayonida matn doirasida bir xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalash uchun lingvistik sinonimlar tushunchasi bilan chegaralansa, jiddiy xatoga yo'l qo'ygan bo'lar edi, shuning uchun biz ilmiy tadqiqotimizda lug'aviy sinonimlar masalasiga emas, balki «so'zning ma'nodoshlari» tadrishiy tushunchasiga tayandik. «So'zning

ma'nodoshlari» tushunchasi qamrovi sinonimlar tushunchasidan ancha kengdir. Amaliy-tadrisiy ehtiyoj talabi asosida yuzaga kelgan bu tushuncha sof lingvistik sinonimlarni ham, parofrazalarni ham, frazemalarni ham, ilmiy atamalarni ham, qo'llanishi chegaralangan, ixtisoslashtirilgan atov so'z va so'z birikmalarini ham o'z ichiga oladi. O'z-o'zidan savol tug'ilishi mumkin. Lug'aviy sinonim, olmosh, parafraza, frazema, giponimik, gradonomik, antonimik qator so'zlarni ilmiy atamasi, ixtisoslashgan ma'noli so'z, so'z birikmasi, ramz kabi xilma-xil shakliy qurilish, ma'noviy va vazifaviy xususiyatga ega bo'lgan lingvistik hodisalarni bir guruh «so'zning ma'nodoshlari» guruhiga birlashtirishga qanday lingvistik asos bor?

Bunday tabiatan xilma-xil bo'lgan narsani bir guruhga birlashtirishning muhim asoslaridan biri bilan yuqorida tanishib o'tdik. Bu asos matn va matnda xilma-xil tabiatli, xilma-xil ko'rinishli lisoniy hodisalarni muayyan sharoitda borliqdagi ayni voqelik nutqda atab kelishdir. Tilning amaliy mahsuli bo'lmish bog'lanishli nutqda turli tabiatli, turli xil ko'rinishli hodisalarning mohiyatan bir narsani atab kelishiga xizmat qilishi tadrischi tilshunos uchun amaliy faoliyat uchun asosdir. Agar tadrischi tilshunos tilshunoslik faniga qat'iy amal qilsa va til ichki qonuniyatlarini hisobga olmasa, yuqorida keltirilgan birinchi matnni quyidagi ikki shakldan birida bo'lishini kuzatishi mumkin edi.

1-ko'rinish. Sanobar Ahadova-mening opam. Opam-ilg'or mexanizator. Opam shu mavsumda 25 tonna paxta terdi. Opam oilamiz faxridir. Jamoa xo'jaligining «Xurmat taxtasi» dan opamning surati o'rin olgan.

2-ko'rinish. Sanobar Ahadova-mening opam. Sanobar Ahadova Ilg'or mexanizator. Sanobar Ahadova shu mavsumda 25 tonna paxta terdi. Sanobar Ahadova oilamiz fahridir. Jamoa xo'jaligining «Hurmat taxtasi» dan ham Sanobar Ahadovanning surati o'rin olgan.

Nega tilshunoslik fani talablari nuqtai nazaridan bu matn shu ikki ko'rinishdan boshqa ko'rinishga ega bo'la olmadi? Chunki na Sanobar Ahadova va

na opam so‘zlari o‘zbek adabiy tilida lug‘aviy sinonimga ega emas. Biz matn tuzish va tahrirlash jarayonida so‘zni uning sinonimlari bilan almashtirishni tilshunoslik fani nuqtai nazaridan bolalarga o‘rgatsak, ularni tilning ichki qonuniyatlariga zid yo‘naltirgan bo‘lamiz. Til tilshunoslik qonuniyatlari asosida yashamaydi, nutq tilshunoslik qonuniyatlari asosida bunyod etilmaydi, aksincha, tilning yashash qonuniyatlari uning matn qurish, nutqning rang-barangligini ta‘minlash imkoniyatlari tilshunoslik fanida o‘rganilishi va tilshunoslik Fani qonuniyatlari fanida aks ettirishi lozim. Modomiki, Karim Toshkentdan xursand bo‘lib keldi. U bizga poytaxtdan xushxabar olib qaytdi matnida Karim, Toshkent poytaxt bo‘la olar ekan, munosabatlardan uzilgan holda abstrakt (mavhum) sifatida olingan. Karim va u, Poytaxt va Toshkent so‘zlarining lug‘aviy ma‘nosi orasida hech qanday aloqa yo‘q deb, ular orasidagi ma‘nodoshlik va vazifadoshlikni inkor etish til qonuniyatiga zid borishdir.


Til o‘rni bilan Karim so‘zini u so‘zi bilan, Toshkent so‘zini poytaxt so‘zi bilan ma‘nodosh va vazifadosh, ya‘ni semantik-funksional jihatdan bir-biriga teng qo‘yadi va bu hodisaning lisoniy usuli keng ommalashgan. Chunonchi, poytaxt hamda Toshkent so‘zlari orasidagi umumiylik shundaki, Toshkent so‘zining semantik strukturasi «O‘zbekistonning poytaxti» semasi mavjud. Mana shu asosda poytaxt va Toshkent so‘zlari ma‘lum matniy sharoitda bir-biriga ma‘nodosh bo‘la oladi. Karim va u so‘zlarining o‘zaro ma‘nodosh bo‘la olishiga asos shundan iboratki, Karim so‘zida ham u kishilik olmoshida ham shaxs semasi mavjud va ma‘lum matniy sharoitda ko‘rsatish olmoshi va kishilik olmoshi istagan atoqli, yoxud turdosh otni almashtira oladi. Shuning uchun olmoshlarni bo‘sh idish bilan qiyoslaymiz. Bo‘sh shisha idish ichiga qaysi rangdagi suyuqlik quyilsa, shisha idish shu rangni olganidek, olmosh ham muayyan nutq sharoitida matndagi qaysi so‘zga ishora qilib uni almashtirgan bo‘lsa, o‘sha so‘zga ma‘nodosh bo‘lib keladi. Yuqorida keltirilgan matnda u-kishilik olmoshi Karim so‘ziga ishora qilib

kelmoqda va bu matnda bu olmosh Karim soʻzining maʼnaviy qimmatiga egadir, yaʼni unga maʼnodoshdir.

Biz munosabatga kirishmagan u va Karim yoki oq oltin va paxta soʻzlarini lingivistik sinonim sifatida baholash tarafdori emasmiz. Xuddi shuningdek, tashvish va boshogʻriq kabi lisoniy birliklarni bir-biriga lingivistik sinonim sifatida deb baholash fikridan uzoqmiz, nutqda har bir betda, har bir satrda bunday birliklarning bir-birini bemalol almashtirish, yaʼni bir-biriga maʼnodosh va vazifadosh ekanligidan koʻz yuma olmaymiz. Til qonuniyatlari asosida matnda maʼnodosh va vazifadosh boʻla oladigan, yaʼni biri oʻrnida ikkinchisi bemalol qoʻllanila oladigan hodisalarni birgalikda olib tahlil qilsakgina soʻzning barcha maʼnodoshini va ular orasidagi nozik uslubiy va maʼnaviy farqlarni oʻquvchilarga yetkaza olamiz. Shundagina oʻquvchiga keng isteʼmol soʻzlar, ilmiy atama, xususiyat qoʻllanishli soʻz, parafraza, frezma, olmosh v.h. vositasida atalgan borliqdagi ayni bir voqealik nomlarida qanday nozik maʼno va vazifalar yashiringanligini tushuntira olamiz. Shu asosda istagan turdagi matnda har bir soʻzning chizmada koʻrsatilgan turdagi maʼnodoshlarini aniqlay olamiz va aksincha, matn tuzish jarayonida shu soʻz bilan atalgan voqelikni atab nutqqa kirita olamiz.

Soʻzni soʻz bilan almashtirish yoki frazema, tasviriy ifoda, olmosh bilan almashtirish oʻziga xos maqsad va sharoitni talab etadi. Har bir almashtirish oʻzigagina xos oqibatlariga ega. Lugʻaviy sinonimiya munosabati faqat soʻz-soʻz almashinuv chizigʻiga egadir. Atama – soʻz almashinuvida, chunonchi, soʻz va ramz; suv – N2O, qarshilik – R almashinuvlarida uslubiy xoslanganlik, soʻz – parafraza (suv-hayot manbai), soʻz-frazema (tashvish-boshogʻriq) almashinuvida uslubiy ifoda; soʻz-olmosh almashinuvchida ixchamlik va matn tarkibiy qismlarini bogʻlash kabi xususiy maʼno va vazifalar yuzaga chiqadi va xuddi mana shular tilimizning goʻzalligi, taʼsirchanligi, xilma-xil maqsad sharoiti talablarini bemalol qondira olishini taʼminlaydi.

Яқин маъноли сўз



Bunday masala hozirgi kunda o'zbek tili tadrisi oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir. Chunki pedagogik nuqtai nazardan metodologik ahamiyatga ega bo'lgan ayni bir fikrni nutq sharoitida so'zlovchi maqsadiga, tinglovchi tabiatiga mos ravishda turli shaklda bayon etish malakasini o'quvchilarga singdirish muammosini qo'yish istiqlol davri o'zbek tili tadrising inqilobiy vazifasidir. Zero, shunday nutq ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan shaxsgina yangi davr farzandi sanalishi mumkin. Shundagina o'zbek xalqi farzandlari nafaqat iqtisodi bilan, balki ma'naviyati, bilimi bilan jahonni qoyil qoldirishi mumkin.

3.Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili

O‘quvchilar nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitish muammosi o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va usuliyati fanining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Ilmiy-pedagogika adabiyot bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, bu masala rus tili o‘qitish metodikasida ancha keng va atroflicha o‘rganilgan. Rus tili o‘qitish metodikasida mazkur muammo bilan A.T.Baranov M.R.Lvov, V.E.Ma‘mushin, L.I.Smirnova V.P.Ozerskach , T.I.Chijova (93, 13) va boshqalar jiddiy shug‘ullangan.

Turkiy tillar o‘qitish metodikasida ham o‘quvchilar nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitish muammosi bilan bog‘liq bir qator ilmiy-pedagogik adabiyot mavjud. Chunonchi F.G.Hasanov, V.Oaraliev va boshqalar ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilar nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitishining samarali metod, vosita va usullari xususida fikr yuritib, juda rang-barang ijodiy-amaliy mashq turlaridan foydalanishni maslahat bergan. Ammo mazkur ishlarda sinonim so‘zlar ustida ishlash ko‘proq «Leksikologiya» bo‘limi doirasida qolib ketgan. Tilning boshqa bo‘limlarini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitish muammosi o‘zning yetarli ifodasini topmay qolgan.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasida mazkur muammo juda ko‘p filolog tadrishi olimlarni qiziqtiradi.

Tadqiqot mavzusi bilan bevosita aloqador ishlardan biri G‘.Azizovning «O‘zbek maktablarining 5-sinfida ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitish metodlari» nomli nomzodlik dissertatsiyasidir.

Mazkur dissertatsiyada «Sinonim so‘zlarni o‘rganish jarayonida va qisman «Leksikologiya» dan boshqa mavzularni o‘rganishda sinonim so‘zlar ustida ishlash xususida fikr yuritiladi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishida sinonim so‘zlar ustida ishlashning maqsad va vazifalari, 5-sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatidan kelib chiqqan

holda sinonim soʻzlar ustida ishlashning oʻziga xos xususiyati, ona tili mashgʻulotlaridan foydalangan holda oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar bilan boyitish borasida qimmatli fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Tadqiqot mavzusi bilan aloqador ishlardan yana biri T.Ziyodovanning «Ona tili taʼlimi jarayonida oʻquvchilarning soʻz boʻyligini oshirish» mavzusidagi dissertatsiyasidir.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishining asosiy maqsadi ona tili oʻqitish jarayonida soʻz boʻyligini oshirish imkoniyatini aniqlashdan iborat boʻlib, sinonim soʻzlar ustida ishlashga ham keng oʻrin berilgan.

Deyarli barcha til boʻlimini oʻrganishda berilgan umumisteʼmol soʻzlarga maʼnodosh topib, sinonimik qatorlar hosil qilish. (Masalan: chiroyli, goʻzal, barno, zebo, latofatli, sohibjamol, parivash va xokazo); berilgan gapdagi yoki matndagi har bir soʻzni uning maʼnodoshi bilan almashtirib gaplar yoki matnni oʻzgartirish; tovushdosh, uyadosh va qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarga maʼnodosh topish kabi ijodiy-amaliy ish turlaridan foydalanish maslahat beriladi.

Dissertatsiya mavzusi bilan aloqador yana bir ish K.Qosimovanning «Oʻzbek maktablarining 5-sinfida ona tili darslarida lugʻat ustida ishlash» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasidir.

Mazkur dissertatsiyada ona tili darsida lugʻat ustida ishlashning rang-barang yoʻllari koʻrsatilgan. Chunonchi, imlosi murakkab soʻzlar, ruscha-baynalminal soʻzlar, atamalar ustida ishlashning samarali usullari qayd etilgan, ammo mazkur ilmiy-tadqiqot ishining asosiy maqsadi lugʻat ustida ishlashning samarali yoʻllarini aniqlashdan iborat boʻlganligi uchun ham bu ishda sinonimlar ustida ishlash, oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar bilan boyitishga xizmat qiladigan ijodiy-amaliy topshiriqlarni ishlab chiqishga kam eʼtibor berilgan.

Dissertatsiya mavzusi bilan bogʻliq boʻlgan ilmiy-pedagogik adabiyot xususida gap ketar ekan, keyingi yillarda yaratilgan ilmiy-metodik adabiyotlar haqida ham toʻxtalib oʻtishga toʻgʻri keladi. Ayniqsa, soʻnggi yillar taʼlim

mazmunini yangilash muammosiga doir A.G‘ulomov, H.Ne‘matovning «Ona tili ta‘limi mazmuni», ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma va A.G‘ulomov va B.Qobilovanning «Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari», ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma kabi metodik qo‘llanmalari bu masalalarga ancha oydinlik kiritdi. Jumladan, «Ona tili ta‘limi mazmuni» metodik qo‘llanmasida ta‘lim mazmunini yangilash zaruriyatlari, ta‘lim mazmunini yangilashning asosiy yo‘nalishlari, ona tilidan amaliy-ijodiy ishlar xususida fikr yuritish bilan birga «Fonetika», «Leksikologiya», «Morfologiya» dan zaruriy bilim silsilasi haqida keng fikr yuritiladi. Ular har bir bo‘limni o‘rganishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga uringan hamda sinonim so‘zlar ustida ishlash yuzasidan foydali maslahatlar bayon qilganlar. Chunonchi, «Fonetika»ni o‘rganishda tovushdosh so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, ayni vaqtda tovushdosh so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, Ayni vaqtda tovushdosh so‘zlarga ma‘nodosh topish singari ish turlari ham tavsiya etilgan. «Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari» metodik qo‘llanmasida berilgan so‘zlarni ma‘nodosh guruhlariga ajratish, ma‘lum bir belgi oshib borishi yoki kamayishiga qarab ma‘nodosh so‘zlarni joylashtirish, berilgan so‘zlardan sinonimik qatorlar hosil qilish, gapda ma‘lum bir so‘zni uning ma‘nodoshi bilan almashtirish, berilgan matndagi so‘zlarni imkoniyat doirasida ularning ma‘nodoshi bilan almashtirib, shaklan yangi matn yaratish singari ijodiy-amaliy ish turlari tavsiya etilgan. Bular ona tili darslari samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

4. Ona tili ta‘limi jarayonida so‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlash-yagona pedagogik tizim

Ma‘lumki, til bir-biridan ajralgan hodisalar yig‘indisi emas, balki yaxlit bir butunlikni tashkil etadigan muayyan sistemadir.

Ona tili mashg‘ulotlarida so‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlashning bir butun sistema ekanligini ochishdan oldin shu tushunchaning mohiyatini aniqlab olishga to‘g‘ri keladi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» da bu tushuncha quyidagicha

sharhlanadi: «Sistema-o‘zaro uzviy bog‘langan qismlardan: elementlardan tarkib topgan butunlik» Biz quyida sistema va tizim so‘zlarini ma‘nodosh sifatida qo‘llaymiz.

Ona tili mashg‘ulotlarida muayyan bir malaka yoki ko‘nikma bir-ikki mashq qilish mahsuli bo‘lmay, uzluksiz, doimiy mashq natijasida tarkib topadi. Bu mashqlar bir-birini aynan takrorlamay, biri ikkinchisini to‘ldiradigan, muayyan xususiyati bilan o‘zaro bog‘langan va o‘quvchini oddiydan murakkabga olib boradigan dialektik jarayondir.

So‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlash ham xuddi ana shunday murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u barcha til bo‘limini o‘rganishda asta-sekinlik bilan tarkib topadi, takomillashadi va rivojlanadi.

So‘zning ma‘nodoshlari ustida ishlashni yaxlit pedagogika tizimga aylantirish avvalo til bo‘limlari orasida uzviy aloqadorlikni ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Pedagogik adabiyotlarda fan ichidagi bog‘lanishning 2 xil ko‘rinishi ma‘lum. Bog‘lanishning birinchi ko‘rinishi yuqoridan pastga qarab bog‘lanish bo‘lib, bunda o‘rganilayotgan mavzu oldin o‘rganilgan bo‘lim yoki mavzular bilan o‘zaro aloqadorlikda, bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Chunonchi «Morfologiya»dan har bir so‘z turkumi o‘rganilar ekan «Leksikologiya» bo‘limidan o‘rganilgan materiallar bilan uzviy bog‘lanadi va o‘quvchilarni yangi bilim, ko‘nikma hamda malaka bilan qurollantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Bog‘lanishning ikkinchi shakli pastdan yuqoriga qarab bog‘lanish bo‘lib, bunda o‘qituvchi o‘rganilayotgan materialni o‘rganiladigan material bilan bog‘laydi (120, 83).

O‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitish maqsadida bu bog‘lanishlarning har ikkala turidan foydalanamiz.

Ma‘lumki, o‘quvchilar sinonim so‘zlar haqidagi dastlabki ma‘lumotni boshlang‘ich sinflarda olgan. Ular 5-sinfga kelganga qadar tovush va harflar

ularning o‘zaro munosabati, unli va undosh tovushlar, bo‘g‘in hamda urg‘u haqida ma‘lumot oladi, so‘z tarkibini (o‘zak, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni), so‘z turkumlarini o‘rganadi, ularning leksik ma‘nosi so‘roqlari, so‘z o‘zgartirish (turlanish, tuslanish) formalari asosida farqlanishini bilib oladi. Ana shu jarayonda ular shu sinf doirasidagi ayrim sodda so‘zning ma‘nodoshlari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega.

2-sinfda «Grammatika» bo‘limini o‘rganish jarayonida so‘zning tarkibi, o‘zak, so‘z yasovchi qo‘shimchalar (-chi, -la, -li, -siz) va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar haqida umumiy ma‘lumotga ega bo‘ladi. So‘z turkumlari: ot, sifat, haqida bilim oladi, egallaydilar, shuningdek, ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar bilan tanishadi, fikrni ifodalashga eng muvofiq so‘zlar tanlay olish ko‘nikmalarini egallaydi. O‘quvchilarning bu sinfda bir-biriga yaqin so‘zlarni o‘rganishini hisobga olib, ta‘limning keyingi bosqichlarida bu yo‘nalishdagi ijodiy-amaliy ishlarni kuchaytirishga ehtiyoj seziladi.

3-sinfda o‘quvchilar so‘z tarkibi, so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l) sinonim va antonim so‘zlar, ularni gapda qo‘llay olish, fikrni ifodalashga mos so‘zlar tanlay olish ko‘nikmalarini o‘stiradi. Bu sinfda ular bir xil so‘zlarni qo‘llamaslikka o‘rgatib boriladi.

4-sinfda o‘quvchilar so‘z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, qo‘shma fe‘llar va ularning imlosi, fe‘l zamonlari, ularning tuslanishi, o‘tgan zamon qo‘shimchasi /=di/ning imlosi, bog‘lovchi, shuningdek, gap, gapning uyushiq bo‘laklari, uyushiq bo‘laklarida bog‘lanuvchilar haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar ilk maktab yoshidan boshlab sinonim so‘zlar ustida ish olib boradi va bu borada zaruriy ko‘nikma va malaka hosil qiladi

Olingan bilim, ko‘nikma va malaka pastdan yuqoriga qarab bog‘lanishni ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: «Fonetika» bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilar sinonim so‘zlar yuzasidan boshlang‘ich sinflarda olingan bilimga

tayanadi. Demak, mazkur bo‘limni o‘rganishda hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalar takomillashadi, yangi mazmun kasb etadi.

5-sinfda «Leksikologiya» bo‘limidan «Sinonim so‘zlar» mavzusini o‘rganish jarayonida shu mavzu yuzasidan hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalar poydevor vazifasini o‘taydi hamda dars mashg‘ulotini induktiv asosida o‘tish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilar sinonim so‘zlar yuzasidan oldin o‘rganganlarini xotirada tiklaydi, shu egallangan bilimga tayangan holda muayyan ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradi va mazkur mavzu yuzasidan yangi ma‘lumotga ega bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda, xususan tilning eng katta bo‘limi «Morfologiya» ni o‘rganishda shu egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar yangi mazmundagi ijodiy-amaliy ishlar bilan to‘ldirib boriladi.

So‘z ma‘nodoshlari ustida ishlashni til bo‘limlarining tarkibiy qismiga aylantirish, avvalo amaldagi ta‘lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi. Keyingi yillarda Respublikamizda ona tili-o‘zbek tilidan ta‘lim mazmunini takomillashtirish hamda uni yangilash borasida jiddiy izlanishlar olib borildi. O‘zbek tilidan bir necha muqobil dasturning tuzilganligi, maktab «O‘zbek tili» darsliklarining yangilanayotganligi, bu darsliklarning Respublikamizda jamoatchilik asosida tashkil etilgan tajriba-sinov maydonchalarida sinab ko‘rilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

«Ona tilidan ta‘lim mazmuni to‘rt muhim unurning birligidan tashkil topgan» Ta‘lim mazmunining birinchi muhim unsuri o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilim sililasidir. O‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitishga xizmat qiladigan, umuman, o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirishga qaratilgan, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakasini kengaytirishga xizmat qiladigan bilimnigina bir zaruriy bilim deb tushunamiz.

Ta‘lim mazmunining ikkinchi muhim unsuri beriladigan zaruriy bilimga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malaka sililasidir. Ma‘lumki, beriladigan

zaruriy bilim asosida ko'nikma va malaka hosil qildirilmasa, bu beriladigan bilim foydasiz, samarasiz, ortiqcha ma'lumot bo'lib qoladi. Modomiki shunday ekan, ta'lim mazmunini belgilashda amaliy ko'nikma va malaka hosil qilish asosiy o'rinni egallamog'i kerak.

Ta'lim mazmunining uchinchi muhim unsuri o'quvchilarning ijodiy faoliyat usullaridir. Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning asosiy qismini qisman ijodiy va izlanuvchanlikka asoslangan topshiriqlar tashkil etmog'i lozim. O'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitishda faqat oldin olingan bilim asosidagina qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlar berilishi mumkin. Topshiriqning qolgan asosiy qismi hosilo qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan ijodiy-amaliy topshiriqlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim mazmunining to'rtinchi muhim unsuri o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat uyg'unligidir. Ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat shunday uyushtirilmog'i lozimki, o'quvchi har bir dars mag'ulotining faol ishtirokchisiga aylansin. O'qituvchi darsni tashkil etar ekan, yuqorida tilga olingan ana shu to'rt unsumni ham inobatga olishi va mashg'ulotlarni shu asosda qurishi bugungi kunning talabidir.

II BOB

5-7 SINFLARDA O‘QUVCHILAR NUTQINI SO‘ZNING MA’NODOSHLARI BILAN BOYITISH IMKONIYATLARI

1. 5-sinfda «Sintaksis va punktuatsiya» bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini so‘zning ma’nodoshlari bilan boyitish

Amaldagi «Ona tili» dasturining talabiga ko‘ra o‘quvchilar «Sintaksis va punktuatsiya» bo‘limini o‘rganish natijasida yoyiq va yig‘iq sodda gapdan uning grammatik asosini aniqlash, gapdagi so‘z birikmalarini ko‘rsatish, o‘rganilgan so‘z turkumlariga xos so‘zlarni bosh so‘z vazifasida ishlatib so‘z birikmalari tuzish, berilgan gaplarni maqsadga ko‘ra turlarga ajrata bilish, gap bo‘laklarining bir-biridan farqini bilish, sodda gap bilan qo‘shma gapni bir-biridan farq qila olish, gapdagi uyushiq bo‘laklarni topa olish, ega va kesimni mavjud bo‘lgan gaplarni sintaktik tahlil qilish, sodda va qo‘shma gap, uyushiq bo‘lakli gap, undalmali gaplar, ko‘chirma gap, dialog tuza olish, gapning o‘rganilgan turlarini ifodali o‘qish va aytish, so‘z shakllari, so‘z birikmasi va gaplarni to‘g‘ri tanlash, matndan gaplarning chegarasini aniqlay olish singari zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi O‘qituvchi tilga olingan materiallarni o‘rganish jarayonida so‘zlarning ma’nodoshlari ustida ishlash va nutqni ma’nodosh so‘zlar bilan boyitish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Bundan tashqari 5-sinfda o‘quv yilining boshida boshlang‘ich sinflarda o‘rganilgan mavzularni takrorlash uchun maxsus dars soatlari ajratilgan bo‘lib, bu mashg‘ulotlarda sinonim so‘zlarga oid ayrim zaruriy ma’lumotni xotiraga tiklash «Sintaksis va punktuatsiya» bo‘limini o‘rganishda bu malakalarni kengaytirish uchun zamin hozirlaydi.

Quyida mazkur bo‘limni o‘rganishda ona tili o‘qituvchilari ish amaliyotida deyarli ishga solinmayotgan ana shu imkoniyatlarni aniqlashga harakat qilamiz.

1. Berilgan so‘z birikmalarini ularning ma’nodoshlari bilan almashtirish.

Bu usul eng samarali usullardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslanadi. O‘quvchi

muayyan soʻz birikmasi izlar ekan, oʻz bisotida mavjud boʻlgan soʻz birikmalarini xotirasidan oʻtkazishga majbur boʻladi. Chunonchi «Soʻz birikmasi» mavzusi oʻrganilar ekan, oʻquvchilarga oʻqishni sevmok, mashqni bajarmoq, kitobni oʻqimoq, ukamga koʻrsatmoq singari soʻz birikmalarida bosh soʻzning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganini aniqlash bilan birga (37-mashq) shu soʻzlarni ularning maʼnodoshlari bilan almashtirib, yangi soʻz birikmalari hosil qilish vazifasi topshiriladi. Oʻquvchilar oʻqishni sevmok soʻz birikmasidagi sevmok soʻzini yaxshi koʻrmoq, xush koʻrmoq yoki mashqni bajarmoq soʻz birikmasidagi bajarmoq soʻzini uddalamok, ijro etmoq, ado etmoq singari maʼnodoshlari bilan almashtiradi. Darslikdagi 40-mashq oʻquvchilardan soʻz birikmalarini oʻqib ergash soʻz bosh soʻzga nimalar yordamida bogʻlanganini aniqlashni, bosh soʻz qaysi soʻz turkumiga kirishini aytishni talab etadi. Oʻquvchilar Vatandan minnatdor boʻlmoq soʻz birikmasidagi Vatan soʻzini ona-yurt, diyor soʻzlari bilan, shuningdek, oʻquvchi bilan gaplashmoq birikmasidagi gaplashmoq soʻzini suhbat qilmoq, fikrlashmoq soʻzlari bilan almashtirish imkoniyatiga ega.

Mazkur mavzuni oʻrganishda, ayniqsa, koʻmakchi birikmalarni kelishikli birikmalar bilan almashtirishga oid ijodiy-amaliy ishlar ham oʻquvchilarning nutqiy imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, oʻquvchilarga avtobus bilan kelmoq, telefon orqali gapirmok, singlim uchun olmoq singari soʻz birikmalari berilgan boʻlsa, ular bu soʻz birikmalarini avtobusda kelmoq, telefonda gaplashmoq, singlimga olmoq kabilarga aylantiradi.

2. Berilgan gaplarda ajratilgan soʻzlarni ularning maʼnodoshlari bilan almashtirish. Bu ish ham ijodiy-amaliy ish turlaridan biri boʻlib, oʻquvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim oʻrin egallaydi. Topshiriqning bu turidan mazkur bobga oid deyarli barcha mavzularni oʻrganishda foydalansa boʻladi. Chunonchi, 48-mashq ajratib koʻrsatilgan soʻzlar bilan hosil boʻladigan soʻz birikmalarini koʻchirishni talab etadi. «*Qaldirgʻoch-insonning chin doʻsti*» yoki «*U pashsha, chivin, turli kapalaklar bilan ovqatlanadi*» singari gaplarda

insonning soʻzini (bu soʻz ajratilgan boʻladi), *odamning, kishining, yoxud ovqatanadi* soʻzini *ozuqlanadi* soʻzlari bilan almashtirishadi. Darslikdagi 53-mashqda «*Dalalarda oppoq paxtalar qiygʻos ochildi*», «*Ilgʻor mexanizatorlar oppoq paxtalarni mashinada terayotirlar*» singari gaplar berilgan boʻlib, oʻquvchilar birinchi gapdagi «*qiygʻos*» soʻzini chamandek soʻzi bilan, ikkinchi gapdagi «*ilgʻor*» soʻzini peshqadam, zarbdor soʻzi bilan almashtirish imkoniyatiga ega boʻladi. «Sintaksis va punktuatsiya» boʻlimidan «Gapning maqsadga koʻra turlari» (Darak gap, soʻroq gap, buyruq gap), «Undov gap», «Gap boʻlaklari», «Undalmali gaplar» singari mavzularni oʻtishda ham bu usulni qoʻllash mumkin. Chunonchi, «Undalmali gaplar» mavzusi oʻrganilar ekan, oʻquvchilar qahramonlar, diyorum, doʻstim, dadajon singari soʻzlarning undalma vazifasida kelish holatlariga duch keladi. Bu soʻzlarni ularning maʼnodoshlari bilan almashtirish topshirilsa (Masalan, *Qahramonlar, gʻalabangiz muborok! Hamisha sogʻ boʻling, dadajon!* v.h.), ular qahramonlar soʻzini bahodirlar, botirlar, pahlavonlar soʻzlari bilan; dadajon soʻzini otajon, padari buzrukvorim singari soʻzlar bilan almashtiradi. Ayrim holda (sinf oʻquvchilarining bilim saviyasi yuqori boʻlsa) berilgan gaplardagi har bir soʻzni uning maʼnodoshi bilan almashtirishi ham eng samarali ish usullaridan biri boʻladi. Masalan, «Yashna Vatan, jon Vatan, senga sharafshon Vatan» gapida yashna soʻzi gulla, Vatan soʻzi diyorum, yurt, oʻlka soʻzlari bilan almashtirishi, gapning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartirishi mumkin.

3. Nuqtalar oʻrniga gapning mazmuniga qarab sinonim soʻzlarni topib qoʻyish. 1) Men..., ... shahrim ona Buxorom bilan faxrlanaman. 2) Oʻzbekiston ... dalalarga, ... va ... bogʻlarga boy oʻlka 3) ..., ..., Qizlarning goʻzal fazilatlaridan hisoblanadi. 4) Xalqimiz ona yurtini har doim..., uning har bir qarich yerini muqaddas biladi, ..., 5) ..., ... yoshlarimizdan ham koʻp umidlar qilib qolamiz.

Ijodiy-amaliy ishning bu turi «Uyushiq bo‘lakli gaplar» mavzusini o‘ganishda ancha qo‘l keladi. Masalan, o‘quvchilarga «*Men go‘zal, chiroyli shahrim-ona Buxorom bilan faxrlanaman*», «*O‘zbekiston bepoyon dalalarga, keng va obod bog‘larga boy o‘lka*», «*Sharm, hayo, ibo qizlarning go‘zal fazilatlaridan hisoblanadi*», «*Xalqimiz ona yurtini har doim ulug‘laydi, uning har bir qarich yerini muqaddas biladi, sevadi, ardoqlaydi*» sinagari gaplar berilgan bo‘lsa, ular shu gaplardagi nuqtalar o‘rniga birinchi gapda *go‘zal, chiroyli*, ikkinchi gapda *bepoyon, keng, obod*, uchinchi gapda *sharm, hayo, ibo* to‘rtinchi gapda *ulug‘laydi, sevadi, ardoqlaydi*, beshinchi gapda esa *zukko, dono kabi ma‘nodosh so‘larni qo‘llash* imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sinf o‘quvchilarining bilim saviyasi nuqtalar o‘rniga mustaqil ravishda sinonim so‘zlarni qo‘llash darajasiga muvofiq kelmasa, uyushiq bo‘lakli ma‘nodosh so‘lar gaplarning pastida berilishi ham mumkin. O‘quvchilar pastda berilgan sinonimlardan mosini tanlab, gaplarni to‘ldiradi.

4. O‘qilgan hikoya, badiiy parcha va she‘rlardan ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni ularning ma‘nodoshlari bilan almashtirish. Kuzatish va tajribalardan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda va 5-sinfning dastlabki bosqichlarida matnda so‘zlarni takror va takror qo‘llash holati ko‘p uchraydi. O‘quvchilar «*Paxta yig‘im-terimida ota-onamizga yordamlashdik*» mavzusida matn yaratgan bo‘lsa, 5, 6 o‘rinda yordamlashdik so‘zini takror qo‘llaydi. Bu hol ko‘pincha ma‘nodosh so‘zlardan unumli foydalana olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bunga o‘xshash nutqiy nuqsonlarning oldini olish maqsadida biz berilgan matnlarni tahlil qilish va takror qo‘lanilgan so‘zlarni ularning ma‘nodoshlari bilan almashtirish usulidan foydalandik. Ijodiy ishning bu turi birinchidan, o‘quvchilarda nutq go‘zalligini, ta‘sirchanligi, jozibadorligini ta‘minlasa, ikkinchidan, ularda tahrir malakasini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Chunonchi, 5-sinf o‘quvchilariga (tajriba-sinov sinfi) quyidagi matnni tahlil qilib, takroriy qo‘llanilgan so‘zlarni ularning ma‘nodoshi bilan almashtirish vazifasini topshirdik.

Namun. *Ota-oila podshosi.*

Ota har doim oila boshlig'i bo'lishi kerak. Chunki ota ertadan kechgacha ishlaydi, pul topadi. Ota topgan puliga o'z oilasini yediradi, ichiradi, kiydiradi. Ota oilasini boshqalardan kam bo'lmasin deb boqadi. Bizning otamiz ham ana shunday otalardan. Biz nima qilmoqchi bo'lsak otamlarning ruxsatsiz qilmaymiz. Biz farzandlar hamma vaqt otamizni, onamizni hurmat qilishimiz, ulug'lashimiz kerak. Ota-ona oldidagi farzand burchini ardoqlashimiz lozim.

Tahrir namunasi. *Ota-oila podshosi.*

Ota har oila boshlig'i bo'lishi kerak, chunki dadalar ertadan kechgacha ishlaydi, pul topadi. Padari buzrukvorimiz topgan pullari evaziga o'z oilalarini boqadilar. Otalar o'z oilasini boshqalardan kam bo'lmasin deb qayg'urishadi. Bizning dadajonimiz ham ana shunday otalardan. Biz nima qilmoqchi bo'lsak, u kishining ruxsatisiz qilmaymiz. Biz farzandlar hamma vaqt otamizni, onamizni hurmat qilishimiz, ulug'lashimiz kerak. Ota-ona oldidagi farzandlik burchini ardoqlashimiz lozim.

Xullas, 5-sinfda «Sintaksis va punkttsatsiya» bo'limini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'zlarning ma'nodoshlari bilan boyitishning imkoniyatlari nihoyatda ko'p. Bu muhim tadbir birinchi navbatda darslikda berilgan mashqlar shartiga ayrim qo'shimchalar kiritish orqali va ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan topshirilgan ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Berilgan so'z, so'z birikmalarini ularning ma'nodoshlariga almashtirish, keyingi bosqichlarda so'zlarning ma'nodoshlari ustida ishlashni barcha o'rganilgan til hodisalarining tarkibiy qismiga aylantirish imkonini beradi.

2. «Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» bo'limini o'rganishda so'zning ma'nodoshlari ustida ishlash

Ma'lumki, 5-sinfda «Fonetika» ni o'qitishda o'quvchilar o'zbek tilining tovush sistemasi va ularning xususiyati adabiy talaffuz me'yorlari, grafikaga doir

dastlabki zaruriy ma'lumot tovush bilan harfni farqlashga oid o'ta muhim bilim bilan qurollantiriladi. Mazkur bo'limni o'rganishda ular nafaqat o'zbek tilining tovush sistemasi bilan tanishtirilishi, balki so'z boyligini muttasil oshirib borish bilan bog'liq muhim ishlarni ham bajara borishlari kerak. Bu bo'limni o'rganishda ham so'zlarning ma'nodoshlari ustida ishlash eng zarur talablardan biri hisoblanadi.

Biz tajriba-sinov guruhlarida o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish maqsadida bir qator ijodiy-amaliy ish turlaridan foydalandik.

1-topshiriq. Yozuvda e tovushining e va e harflari bilan berilishiga oid misollar qatorini davom ettiring. Ularning ma'nodoshlarini toping.

El, ertalab, e'tiqod, ehson, endi, epchil, ehtiyot, e'zoz.

2-topshiriq. So'z juftlarini o'qing. Ayirish belgisining ishlatilish sababini tushuntiring, ayirish, belgisiz yozilgan so'zlarning ma'nodoshini toping.

Aza-a'zo, davo-da'vo, sava-sa'va, sana-sa'na, qala-qa'la, surat-sur'at.

3-topshiriq. A va O unilari bilan farqlanuvchi so'z juftlarini o'qing. Bu unilarning talaffuziga e'tibor bering. So'zlar qatorini davom ettirib ularning ma'nodoshini toping.

Ona-ana, soda-sada, qotil-qatl, ota-ata, oqil-aql, sora-sara, olam-alam, bol-bal.

4-topshiriq. B-p, d-t, jarangli jarangsiz undosh juftlarini so'z boshi va oxirida o'qilishiga e'tibor berib so'zlarni o'qing. So'z ma'nolarining yozuv hamda talaffuzidagi farqini tushuntiring. Ajratilgan so'z juftlarining ma'nodoshini toping.

Bir-pir, bol-pol, bayt-payt, band-pand, bilib-hasip, hisob-likop, bob-bop, yod-yot sud-sut, daromad-qiroat, tor-tor, dori-tori, dog'-tog', dil-til.

Tovushdosh so'zlarning ma'nodoshini topish. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va usuliyatiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tovushdosh so'zlar ustida ishlash o'quvchilar so'z boyligini oshirishning eng samarali usullaridan biri sifatida qayd etiladi. (52, 8, 123, 9).

«Tovushdosh soʻzlar» tushunchasi ilmiy-pedagogik adabiyotda kam uchraydigan tushunchalardan biri boʻlib, unga quyidagicha taʼrif berilgan:

«Tovushdosh soʻzlar bir-biridan atigi bitta tovush bilan farqlanuvchi turli xil maʼnolarga ega boʻlgan soʻzlardir» (52, 9; 123, 7-8).

Oʻquvchilar unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlo xususiyatini oʻrgangach, berilgan soʻzlarga tovushdosh soʻz tanlash, ularning maʼnosini sharhlash kabi ijodiy-amaliy ish bilan band boʻladi. Ana shu jarayonda ayrim tovushdosh soʻzlarga maʼnodoshlar topish singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan ham foydalanishadi.

Oʻquvchilarga bob-bop, sirt-sur, boʻr-bor, boʻl-bol, til-dil singari bir tovush bilan farqlanuvchi soʻlar bilan berilgan boʻlsa, ular bob soʻziga boʻlim, qism, bop soʻziga mos, yarashiqli, soz, sirt soʻziga tashqi, surt soʻziga art, boʻya, bur soʻziga aylantir, bor soʻzia mavjud, boʻl soʻziga hozirlan, tayyorlan, bol soʻzi asal, til soʻziga zabon, dil soʻziga yurak, qalb, koʻngil singari maʼnodosh topishadi.

«Unli va undosh tovushlar» mazusi oʻrganilar ekan, u-u, i-u, z-i va hokazo tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlar ustida ham ish olib boriladi. Oʻquvchilar birinchi boʻgʻinda u-u, ikkinchi boʻgʻinda u yoki i kelgan soʻzlar talaffuzi, imlosi va maʼnosi ustida ishlash imkoniyatiga ega boʻladi. Ana shu tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlarga maʼnodosh topish ham ijodiy-amaliy oʻquvchilar u-i tovushlari bilan farqlanuvchi soʻz juftlari ustida ish olib borayotganda urush-urish, boʻlim-bilim, toʻnim-tinim singari soʻzlarga duch keladi. Ayni vaqtda bu soʻzlarning maʼnodoshi ustida ham ish olib boradi. Oʻquvchilari urush soʻziga jang; urush soʻziga kaltaklamoq, doʻpposlamoq, boʻlim soʻziga qism, bob, bilim soʻziga ilm, toʻnim soʻziga choponim, tinim soʻziga orom singari maʼnodosh soʻzlarni topishadi. Oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar maʼnodosh soʻzlarni topishadi. Oʻquvchilar nutqini sinonim soʻzlar bilan boyitishda darslikda berilgan mashqlardan ham foydalansa boʻladi. Masalan «Jarangli va jarangsiz undoshlar» mavzusiga oida 4 ta mashq berilgan. Oʻqituvchi bu mashqlar shartiga ayrim

qo‘shimcha topshiriq kiritib ma‘nodosh so‘zlar ustida ishlash imkoniyatini yaratadi. Chunonchi, 183-mashqda berilgan majlis, jahon, jurnal singari so‘zlarda jarangli j undoshining jarangsiz juftini aniqlash bilan birga shu so‘zlarga ma‘nodosh so‘z topish topshirilsa, ta‘lim samaradorligi yanada ortadi. Berilgan so‘zlar yordamida o‘quvchilar sinonimik qatorlar hosil qiladi. Masalan. Majlis-yig‘in-anjuman, jahon-olam, dunyo-borliq, jurnal-oyнома.

Darslikdagi boshqa mashqlarni o‘rganishda ham ular shartiga ayrim qo‘shimcha kiritib, o‘quvchilarda so‘zning ma‘nodoshi ustida ishlash etiyojini hosil qilish zaruriyatini qo‘yib so‘zlarni ko‘chirishni talab etadi. Shu mashq shartiga «ajratilgan so‘zlarning ma‘nodoshini toping va ular yordamida gaplar tuzing» singari qo‘shimcha topshiriq kiritiladi. Agar mashqda murod, daromad singari so‘zlar ajratilgan bo‘lsa, bu so‘zlarning maqsad, muddao, foyda singari ma‘nodoshlarini aniqlashadi.

Mazkur bo‘limni o‘rganishda o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish, imlosi murakkab so‘zlar ustida ishlash eng asosiy talablardan biri sanaladi. O‘quvchilar bu bo‘limni o‘rganishda ko‘proq «Imlo lug‘ati» ustida ishlashga to‘g‘ri keladi. Lug‘atdagi ayrim imlosi murakkab so‘zlar ustida ishlash shu so‘zlarning ma‘nodoshini aniqlash bilan qo‘shilib bir yaxlitlik hosil qiladi. O‘quvchilar o‘zi yozgan u yoki bu so‘zning yaxlitlik hosil qiladi. O‘quvchilar o‘zi yozgan u yoki bu so‘zning imlosini lug‘atdan tekshirishar ekan, ayni vaqtda shu so‘zga ma‘nodosh topib, ular yordamida gap hosil qilish bilan ham shug‘ullanishadi.

Masalan, o‘quvchilar unda-bunda, ora-sira, ora-chora, o‘qtin-o‘qtin, birda-yarim, bekamu-ko‘st, kam-ko‘stsiz, to‘la-to‘kis, betma-bet, yuzma-yuz, birdan-bir, yakkayu-yagona, ahdu-paymon, kasb-kor, kiyim-kechak, ust-bosh, kiyim-bosh, alg‘ov-dalg‘ov, shovqin-suron, g‘ala-g‘ovur singari so‘zlarni yozishda juda katta qiyinchilikka duch keladi. Ayrim holda bu so‘zlar chiziqchasiz yoziladi. Mana shunday imlosi qiyin so‘zlar ustida ishlash ularning ma‘nodoshini topish

ta'limning keyingi bosqichlarida «O'zbek tili sinonim so'zlarning izohli lug'ati» ustida ishlash uchun zamin hozirlaydi.

«Inson tili tovush tili bo'lganligi uchun so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasi bilan shakllanadi. Adabiy asarning badiiyligini ta'minlovchi fonolingvitik asoslardan biri tovushdir. Tovushlar, shuningdek, urg'u va intonatsiya poetik asarlar ohangdorligi, emotsional ta'sirchanligini oshirishda muhim stilistik vosita bo'la oladi» (109, 88).

Tilshunos olim E.Qilichev to'g'ri ta'kidlaganidek, «Fonetika» bo'limini o'rganishda fonetik, stilistik malakalarini shakllantirish, ayniqsa, badiiy asarni o'qiyotganda o'quvchilarga yozuvchining maqsadini tushuntirish tovushlar, urg'u, intonatsiya poetik asarlarining emotsional ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini izohlash juda zarurdir. Shu maqsadda tajriba-sinov sinflarida quyidagiga o'xshash fonetik-stilistik topshiriqlardan foydalandik.

1-topshiriq. Berilgan badiiy parchani o'qing. Muallifning tovushlarni cho'zish orqali qanday ma'no ifodalanganini tushuntiring.

...Qish kechalari sandalga tikilib yotarkanman, yalinaman.

- Oyi, cho'pchak aytib bering.

- Uxla bolam, charchaganman.

- Ayta qoli-i-i-ing.

- Xo'p, ko'zingni yumib yotginda, eshit... Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda....

Gap qayoqqa qarab ketayotganini darov bilaman.

- Yana obkashmi?

- Yo'q oftob...

- Uniyam aytgansiz-ku

- Boshqasini bilmayman-da.

-... Oyi, obkashniyam ayting

- Bo'ldi, uxla

- Ayta qol-i-i-ing

2-topshiriq. Talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan quyidagi so'zlarni o'qing. Ularning bir so'z emasligini isbotlang. Bu so'zlarning har biriga ma'nodosh toping.

Sharob-sharaf, qars-qarz, berkitmoq-birkitmoq, shox-shuh, bo'shlik-bo'shliq, kasr-qasr, xil-xil, asr-asir, hil-xil. Ho'rlik-hurlik, otalik-otaliq.

3-topshiriq. O'ylab, miriqib, eshitib, sevinib so'zlarining oxirgi bo'g'inlaridagi unlini cho'zib talaffuz qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing hamda shu so'zlarning ma'nodoshlarini toping.

Namuna: O'yla-a-ab, o'yl-a-ab shu qarorga keldik. (fikrlab)

4-topshiriq. Berilgan so'z juftlarini o'qing. Ularning talaffuzidagi farqni tushuntiring. Bu so'zlar yordamida gaplar tuzib ma'nolarini sharhlang.

Katta bino-ka-a-atta bino, baland minora bala-a-and minora, qari odam-qa-a-ari odam, ko'p daraxt-ko'-o'-o'p daraxt, yaxshi odam-bozorda od-a-a-am.

5-topshiriq. Keksa, qari muysafid, oqsoqol, nuroniy so'zlarining sinonim ekanligini bilasiz. Bu so'zlarning hayvon nomiga yoki faqat odam nomi bilan birikib kelishi haqida hukm chiqaring.

«Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» bo'limini o'rganishda o'rganilganlar bilan birga xalq maqollari ustida ishlash o'quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Masalan, «Ayrim undosh tovushning yozuvda ifodalanishi», «Urg'u» singari mavzularni o'ganishga o'quvchilarga ma'lum xalq maqollarini berib, ularda shu maqolning boshqa variantlarini topish talab etiladi. Masalan, «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom» maqoli berilgan bo'lsa, o'quvchilar shu maqolga yaqin ma'no ifodalovchi «To'ygan yerga to'qqiz kun ta'zim», «Tuzini ichib tuzlig'iga tupurma», «Bir kungi tanishga ming kun salom ber» singari variantlarini topib aytishadi. Yoki yoshlarni yuksak axloq va odob egasi bo'lishga chorlovchi «Dili to'g'rining yo'li to'g'ri»

maqoliga o'quvchilar «Dili pokning yo'li pok», «Toza qalbdagi dog' bo'lmas», «Oq ko'ngilning yuzi ko'rkam», «To'ning yamoq bo'lsa ham, diling yamoq bo'lmasin» singari variantlarini izlaydi. Xalq maqollarining deyarli barchasi ikki-uch va hatto sakkiz-o'ntagacha variantga ega. Shubhasiz, 5-sinf o'quvchilar bu xalq maqollarining turli variantini topishda qiynalishadi. Shuni nazarda tutib, ularning ayrimini o'qituvchi aytishi, yoki «Hikmatnoma» kitobidan izlab topishga o'rgatish kerak bo'ladi (94, 178).

Biz tajriba-sinov sinfi o'quvchilarini qisman shu kitob bilan ta'minlashga harakat qildik.

Xalq maqollari ustida ishlash faqat uning variantini aniqlash bilan cheklanmaydi. O'qituvchi o'quvchilardan shu xalq maqolning ma'nosini sharhlashni talab etishi ham mumkin. Masalan, «Aql bilan odob-egizak» xalq maqolini «Odob bozorda sotilmas», «Odobli bola-elga manzur», «Odobli bola orli bola, odobsiz bola sho'rli bola» singari variantlarga ega. Bu maqolning ma'nosi o'quvchilarga quyidagicha sharhlanadi: «Xalqimiz bu maqolda kishiga jamiyatda o'zini qanday tutishi zarurligi yuzasidan ta'lim berar ekan, avvalo uni aql, axloq va odob egasi bo'lishga, vijdonli, or-nomusli, sof ko'ngilli, subutli bo'lishga da'vat etadi» (94, 26).

Xullas, «Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» bo'limi tilimizning tovush qurilishininggina emas, o'quvchilar so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur bo'limni o'rganishda o'quvchilar nutqini sinonim so'zlar bilan boyitish maqsadida o'qituvchi nafaqat mashqlar shartiga ayrim qo'shimcha topshiriq kiritish, balki tomomila yangi topshiriqlar tuzib, uni amalda qo'llashi mumkin. 5-sinfda bu bo'limni o'rganishda o'qituvchi gap va matn ustida ishlashni ham unutmasligi lozim. Fonetikani o'rganish, deb qayd qiladi. A.G'ulomov va B.Qobilova o'quvchilar o'zi topgan yoki o'qituvchi tomonidan berilgan so'zlar yordamida gaplar qurishi, matnlarni tahrir qilishi, turli mavzuda matn tuzish maqsadga muvofiqdir» (123, 7-8).

O'quvchilar berilgan matnlardan u yoki bu fonetik hodisani kuzatish, masalan, matnni so'zlarga ajratish, bu so'zlardagi tovush va harflar miqdorini aniqlash, ma'lum bir tovush ishtirok etgan so'zlarni ajratish tovush va harf orasidagi munosabatni izohlash, tavsiya etilgan so'zlar yordamida matn yaratish singari ishlardan foydalanish, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

3 «Morflogiya va orfografiya» bo'limini o'rganishda so'z ma'nodoshlari ustida ishlash

Ma'lumki, o'quvchilar «Morfologiya» bo'limiga oid o'ta zaruri bilim, ko'nikma va malakalarni boshlang'ich sinflarda egallagan. Chunonchi, ular ot, uning ma'nosi va so'roqlari, birlik va ko'plikda qo'llanishi, kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi, kelishiklar nomi, qo'shimchalari, so'roqlari, egalik qo'shimchalari sifat va uning ma'nosi va so'roqlari, sifatlarda –roq qo'shimchasining qo'llanishi, son, uning ma'nosi va so'roqlari, olmosh, kishilik olmoshlari, fe'l, uning ma'nosi va so'roqlari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, fe'llarning tuslanishi, fe'l zamonlari, yordamchi so'z turkumi bilan tanishgan.

Ona tilining izchil kursi ana shu bilimni takomillashtiradi va uni yangi zaruriy bilim silsilasi bilan qurollantiriladi.

5-7-sinflarda «Morfologiya»ni o'rganishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad avvalo o'quvchilarning so'z boyligini oshirish so'zdan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. Bu muhim vazifa birinchi navbatda sinonim so'zlar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar nutqini so'zlarning ma'nodoshi bilan boyitishda mustaqil so'z turkumlari ham, yordamchi so'z turkumlari ham keng imkoniyatga ega.

Ot so'z turkimini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish. Ot turkumi ketma-ketlik printsipli asosida 5 va 6-sinflarda o'rganiladi.

Mazkur bo‘limga oid mavzularning har birini o‘rganishda so‘z ma‘nodoshlari ustida ishlashning imkoniyati juda keng va rang-barang. Quyida ana shu usullardan ayrimiga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Berilgan so‘zlarni ma‘nodosh guruhlarga ajratish:

Bu usul eng samarali ish usullaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarga sinonim otlar aralashtirilib beriladi va ulardan shu so‘zning ma‘no yaqinligiga ko‘ra uyalariga ajratish talab etiladi. Masalan, vazifa, do‘ruq, yodgorlik, zarda, burch, qo‘y, sadoqat, gumon, qahr, obida, jahl, sodiqlik, noaniq, achchiq, g‘azab, hohish, tarona, qo‘shiq singari so‘zlar berilgan bo‘lsa, ular quyidagi sinonimik uyalar hosil qiladi. Vazifa-burch, vafo-sadoqat-sodiqlik, jahl-zarda-g‘azab-qahr, do‘ruq-dongshuhrat-nom-shon ovoza, kuy-qo‘shiq-tarona, xohish-istak-orzu-havas-ishtiyoq-hafsala-mayl-istak kabi.

2. Berilgan otlarni ma‘no guruhlariga ajratish va ularga ma‘nodosh topish. Bu mustaqil ish turidan «Ot-so‘z turkumi» «Atoqli va turdosh otlari», «Kichraytirish va erkalash otlari», «Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar va ularning yozilishi», «Buyum narsa oti yasovchi qo‘shimchalar va ularning yozilishi», «O‘rin-joy, mavhum otlarni yasovchi qo‘shimchalar va ularning yozilishi» kabi mavzularni o‘rganishda umumli foydalanish mumkin. Masalan 5-sinfda takrorlash maqsadida «Ot-so‘z turkumi» mavzusini o‘rganish ko‘zda tutiladi. Bu mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga berilgan otlarni, masalan, bola, ho‘kiz, do‘st, qo‘y, shamol, daraxt, maktab, ota-ona, tilla va hokazoni. 1) kishiga oid nomlar; 2) hayvon-jonivor nomlari; 3) narsa-jism nomlari; 4) voqea-hodisa nomlari kasb guruhlariga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish va so‘zlarning ma‘nodoshlarini topish vazifasi yuklatiladi. O‘quvchilar ota so‘ziga padar, ona so‘ziga modar, volida, shamol so‘ziga el, asal so‘ziga bol kabi so‘zlarning ma‘nodosh ekanligini aniqlaydi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida berilgan so‘zlar hech qanday tashqi yordamsiz o‘quvchi tomonidan mustaqil aniqlanishi mumkin. Ammo bu so‘zlarning ayrim ma‘nodoshi borki, o‘quvchilar

uni tashqi yordamsiz aniqlay olmaydi. Masalan, ona soʻziga uyqusiz tunlar hamdamim, ota soʻziga qiblagoh, kaʼbai maqsudim singari soʻz va soʻz birikmalarining maʼnodosh ekanligini topishga qiynaladi. Bu oʻrinda yo oʻquvchilarning oʻzaro suhbatidan, yoxud oʻqituvchi izohidan foydalanish mumkin.

Maʼlumki, otlarning har bir maʼno guruhi oʻz navbatida yana kichik guruhlarga boʻlinishi mumkin. «Shaxs otlari»ni oʻz navbatida 1) yoshga koʻra 2) qarindoshligiga koʻra, 3) kasb-koriga koʻra, 4) istiqomat joyiga koʻra guruhlarga ajratish mumkin. Oʻquvchilar har bir guruhidagi soʻzlar roʻyxatini 10-15 taga yetkazib davom ettirishi va ularga maʼnodosh topishlari mumkin.

Tilimizda ot sinonimlarining salmoqli oʻrin egallashini nazarda tutib 5-sinfda sinonim otlar yuzasidan lugʻaviy-imloviy mashqlar mavzuida dars oʻtkazishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bu darsda asosan berilgan bosh soʻzlarning maʼnodoshini topish ustida ish olib boriladi. Oʻquvchilarga avliyo, avlod, aygʻoqchi, ayol, baxt, baxs, bahona, bemor, dushman singari soʻzlar beriladi va oʻquvchilar ularning har biriga maʼnodosh topish sinonimik uyalar hosil qiladi. Masalan, avliyo-vali-karomatchi, avlod-boʻgʻin, aygʻoqchi-agent-josus, ayol-xotin-qiz-xotin-halaj, baxt-saodat-iqbol-tole, bahs-munozara-tortishuv, bahona-sabab-vaj, bemor-kasal-betob dushman-yov-gʻanim-yogʻi kabilar.

Oʻquvchilar oʻrtasida sinonim otlar topish yuzasidan oʻzaro bellashuv tashkil etish ham mumkin. Bu oʻyinni tashkil etish uchun muayyan bir guruhga bosh soʻzni aytish topshiriladi, ikkinchi guruhi shu soʻzga maʼnodosh topadi.

3. Sinonim soʻzlarning maʼno boʻyogʻi ustida ishlash. Maʼlumki, sinonim qatordagi soʻzlar emotsional boʻyoqdorligiga koʻra oʻzaro farqlanishi mumkin. Masalan: aft-bet-turq-jamol-oraz-chehra-diydor soʻzlari berilgan boʻlsa, ular oraz-jamol-chehra-diydor soʻzlarini ijobiy emotsional boʻyoqdor soʻzlarga, bet-aft-bashara-turq soʻzlarini salbiy emotsional boʻyoqdor guruhlarga ajaratadi.

O'quvchilarga berilgan sinonimik qatordagi so'zlarni iste'mol doirasiga ko'ra: 1) iste'mol doirasi keng so'zlar; 2) iste'mol doirasi chegaralangan so'zlarga ajratish ham topshirilishi mumkin. Masalan, sovg'a, hadya, tortiq, armug'on, tuhfa, xursandlik, sevinch, shodlik, surur kabi sinonimik qatorlar berilgan bo'lsa ular bu so'zlardan sovg'a, hadya, xursandlik, sevinch, shodlik kabi so'zlarni iste'mol doirasi keng so'zlarga; tortiq, armug'on, tuhfa, surur singari so'zlarni esa iste'mol doirasi tor so'zlarga ajratishi mumkin.

Sinonimik qatordagi so'z abadiy tilga yoki dialektga xos bo'lishi mumkin. Shu jihatdan o'quvchilarga ovoz, tovush, sado yoki qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq qatoridagi so'zlarning qaysisi abadiy, qaysisi dialektal so'z ekanligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajarishi mumkin. Ovoz, tovush, sado so'zlari adabiy tilga, sas so'z dialektga yoki qidirmoq, axtarmoq, izlamoq so'zlari adabiy tilga, istamoq so'zi esa dialektga xos bo'lgan so'zdir.

Sifat so'z turkumini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish. Maktabda sifat turkumini o'rganish o'quvchilar nutqining go'zal, rang-barang, ta'sirli va chiroyli bo'lishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, mazkur so'z turkumiga oid dastlabki ma'lumot o'quvchilarga boshlang'ich sinflarda beriladi. Ular sifatning ma'nosi, so'roqlari, sifatlarda –roq qo'shimchasining qo'llanishi xususida zaruriy ma'lumotga ega bo'lgan. Boshlang'ich sinflarda mazkur so'z turkumi yuzasidan olingan bilimga asoslangan holda ular belgini ifodalovchi so'zlar ro'yxatini tuzish, so'roq berishi shu so'zlarni rang-tus, shakl-hajm, maza-ta'm, belgi xususiyatini ifodalovchi sifatlar kabi ma'no guruhlarga ajratish mumkin. 5-6 sinflarda o'quvchilar sifat so'z turkumi yuzasidan izchil bilimga ega bo'ladilar. O'zbek maktablarining 5-9-sinflari ona tili dasturi rejasida ko'rsatilgan barcha mavzuni o'rganishda o'quvchilar nutqini sifat sinonimlar bilan boyitish imkoniyati mavjud.

O'quvchilar nutqini sifat sinonimlar bilan boyitishda asliy sifatlarning ma'no guruhi ustida ishlash katta ahamiyatga molikdir. Maktab darsligida «Sifat so'z turkumi» mavzusiga oid 13 ta mashq berilgan bo'lib, ularning deyarli har birini bajarishda o'quvchilar diqqatini sinonim sifatlarga qaratish maqsadga muvofiq, chunonchi, 359-mashqda o'quvchilardan nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish, qirg'ovulni to'liq va aniq tasvirlashga yordam beradigan so'zlarni aniqlab, ularning qaysi so'z turkumiga mansubligini aytish talab etiladi. O'quvchilar bu mashqda nuqtalar o'rniga berilgan so'zlarning mosini qo'yib ko'chiribgina qolmay, shu so'zlarni ularning ma'nodoshi bilan almashtirishi ham mumkin.

Bunday ish keyingi mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, 362-mashq o'quvchilardan berilgan sifatlar predmetning qanday belgisini (rang-tusi, maza-ta'mi, shakl-hajmi, xil-xususiyati) anglatayotganligini aniqlash va bu so'zlarni jadvalga joylashtirishni talab qiladi. Berilgan jadval talabiga ko'ra rang-tusni ifodalovchi so'zlar (masalan, mayin, yoqimli, o'tkir, ishchan, hushyor, tirishqoq, yomon, yaxshi, quvnoq) kabi so'zlar alohida-alohida ro'yxat qilinadi, hosil bo'lgan guruhlar mustaqil davom ettiriladi va bu so'zlarga ma'nodosh topish talab etiladi. Mashq shartining keyingi topshirig'i shu so'zlar yordamida yomon-yaramas-rasvo-nobop-bo'lmag'ur, quvnoq-sho'x-shodon, ishchan-harkatchan-serharakat-g'ayratli-tirishqoq, hushyor-sergak singari sinonimik qatorlar hosil qiladi.

5-sinfda o'quvchilar nutqining antonim va sinonim sifatlarga boy emasligini nazarda tutib bir soatlik maxsus darsni antonim va sinonim sifatlar yuzasidan takrorlashga ajratish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar I bosqichda antonim sifatlar hosil qilsa, keyingi bosqichda shu antonim sifatlarni ularning ma'nodoshi bilan almashtirishi mumkin. Masalan: ishchan-dangasa, aqlli-beaql, gunohkor-begunoh, baxtli-baxtsiz, vijdonli-vijdonsiz kabi qarama-qarshi ma'noli so'zlarning har biriga ma'nodosh so'z tanlanadi, chunonchi, ishchan-serg'ayrat-mehnatsevar-

g'ayratli-tirishqoq, dangasa-yalqov, ishyoqmas-tanbal, aqli-esli-miyali-kallali, aybli-gunohkor-aybdor, begunoh-gunohsiz-aybsiz, baxtli-baxtiyor-saodatli-toleli; baxtsiz-bebaxt-badbaxt-tolesiz-sho'rpehona, vijdonli-nomusli-to'g'ri-halol-sofdil, vijdotsiz-nomussiz benomus-noinsof-insofsiz-muttaham kabi. Ayni vaqtda bu so'zlarning ma'nosi va imlosi ustida ham ish olib boriladi.

Tilimizda sifat sinonimlari salmoqli qismni tashkil qiladi. Darsda o'quvchilarga bosh so'z berilib, ularning ma'nodoshini topish mustaqil ish sifatida topshirilishi mumkin. Masalan, a'lo, achinarli, mukammal, balo, beg'ubor so'zlari berilgan bo'lsa, o'quvchilar bu sifatlarning ma'nodoshini topib sinonimik qator o'kinchli-kuyinarli-afsusli, mukammal-to'la-to'laqonli-to'laligicha; I balo-falokat-ofat; II balo-usta-ustamon-bilog'on-bilarmon-chechan-epchil-chaqqon-uddaburon; beg'ubor-toza-sof-musaffo kabi, ayniqsa, sifatlarni ibora bilan almashtirish berilgan matnda takror qo'llangan sifatlarni ibora yoki olmosh bilan almashtirish o'quvchilarning nutqiy malakasini takomillashtirishda muhim o'rin egallaydi. Berilgan sifatlarni (mas., chaqqon, yuvosh, sho'x, ko'ngli toza, rahmsiz v.h.) frazeologik birikma bilan almashtirish (yerga ura ko'kka sapchiydi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, bag'ri tosh v.h.) matnni tahrir qilib ortiqcha takror qo'llangan sifatlarga ma'nodosh topish hamda shu asosda matnni tahrir qilishga oid topshiriqlardan keng foydalanishga to'g'ri keladi.

5-sinfda «Sifat darajalari» mavzusini o'rganishda sifat sinonimlari ustida ishlash davom ettiriladi. O'quvchilar berilgan sifatlarni oddiy daraja, qiyosiy daraja va orttirma darajadagi sifatlarga ajratish bilan bir qatorda hosil bo'lgan har bir guruh so'zlariga ma'nodosh topishga tirishadi. Masalan: kichik, yaxshi, shirin, quvnoq, yoqimli, nordon, chiroyli singari oddiy darajadagi sifatlarning har biriga ma'nodosh topib sinonimik qator hosil qilishadi.

Keyingi bosqichida shu so'zlardan orttirma darajadagi sifat hosil qilishadi va yana sinonimlar ustida ishlash davom ettiriladi. Chunonchi, bu so'zlardan juda shu nisbatni hosil qiluvchi ma'nodosh sifatlarni guruhi tuziladi: eng kichik-juda

kichik-nihoyatda kichik; juda shirin-bag‘oyat shirin- nihoyatda shirin-benihoya shirin kabi.

«Ozaytirma sifatlar va ularning yozilish» mavzusini o‘rganishda ozaytirma sifatlarini hosil qiluvchi –ish, -imtir (-mtir) qo‘shimchalarining ba‘zan sinonim hosil qila olishi ustida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, ularga oddiy darajadagi oq, ko‘k, qizil, sariq singari so‘zlar beriladi-da, bu so‘zlarga yuqoridagi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali sinonimik qatorlar hosil qilish vazifasi yuklatiladi. Masalan: oqish-oqimtir, ko‘kish-ko‘kimtir: qizil-qizg‘imtir-qizg‘ish: sariq-sarg‘imtir-sarg‘ish singari.

Xuddi shuningdek «kuchaytirma sifatlar va ularning imlosi» mavzusini o‘rganishda ham kuchaytirma sifatlardan iborat sinonimik qatorlar hosil qilish, gap tarkibida berilgan ma‘lum bir kuchaytirma sifatlarning, uning shu ma‘noni ifodalovchi boshqa ma‘nodoshlar almashtirish, berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish singari mustaqil ish turlaridan foydalanish ko‘zlangan amaliy maqsadni kuchaytiradi.

Sifat sinonimlar ustida ishlash sifat yasovchi qo‘shimchalar «Otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar», «fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar» singari mavzularni o‘rganishda ham davom ettiriladi. –li\ba-: aqlli\baaq; -dor\ser-: savlatdor-sersavlat, davlatdor-serdavlat; -siz\be-: xabarsiz-bexabar, g‘uborsiz-beg‘ubor; -gir(-qir,-kir, -gir)\-ag‘on: topqir-topag‘on, chopqir-chopag‘on; -iq\gan: siniq(shisha)-singan (shisha).

Son so‘z turkumini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini so‘z ma‘nodoshlari bilan boyitish. Son turkumini o‘rganishda ham boshqa so‘z turkumlarida o‘rganishda bo‘lganidek, ko‘proq amaliy maqsadlar ko‘zda tutiladi. «Maktabda son so‘z turkumini o‘rganishdan amaliy maqsad, o‘quvchilarning tilimizda mavjud sonlarni bilishi, ularni to‘g‘ri yoza olishi, nutqda to‘g‘ri va unumli qo‘llashiga erishishidan iborat» (53,58).

Ko'zlangan bu amaliy maqsadda ko'proq sonning sinonim imkoniyati ustida ishlash orqali erishiladi. Ma'lumki, o'zbek tilida sodda sonlar ichida ayrimining sinonimik varianti mavjud. (99, 12).

O'quvchilar son so'z turkumini o'rganishar ekan, bir so'zi o'rniga yakka, yagona, yolg'iz, ikki so'z o'rniga, ko'pincha, qo'sh so'zini qo'llanishini ham bilib olishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, sonning ma'no guruhlarini o'rganayotganda miqdor son bilan bog'liq holda predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan so'zlar, butun, guruh, yoki to'daning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan so'zlar: to'dalab, guruhlab ko'rsatuvchi hisob so'zlar: og'irlikni o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar, uzunlik o'lchov uchun ishlatiladigan hisob so'zlar. Vaqt o'lchovchi uchun ishlatiladigan hisob so'zlar ustida alohida-alohida to'xtalish, shunday so'zlar guruhini o'quvchilar lug'atiga olib kirish maqsadida ijtimoiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish, bir tomondan, o'quvchilar so'z boyligini oshirishga, ikkinchidan, bir shaklni doim takrorlashdan saqlaydi. O'quvchilar predmetlarini yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan so'zlar ustida ishlashar ekan, -ta qo'shimchasi sanoq sonlarning dono, nusxa, bosh, to'p, nafar so'zlari bilan yaqin ma'nodosh ekanligini bilib qoladi. Masalan, bitta daftar, bir dona daftar, ikkita kitob-ikki nusxa kitob, to'rtta qoramol-to'rt bosh qoramol, o'nta daraxt-o'n tup daraxt, beshta qiz-besh nafar qiz singari. Bunday sinonimik imkoniyat hisobni ifodalovchi boshqa sonlarni o'rganayotganda ham davom ettiriladi. O'quvchilar butunning ma'lum bir qismini ifodalovchi so'zlarni o'rganayotganda tilim so'ziga qarich so'zining (masalan, bir tilim qovun, bir qorich qovun); qultum so'ziga yutuv, xo'plam so'zining (masalan, bir tomchi yomg'ir-bir qatra yomg'ir, bir qatra suv-bir qultum suv); to'g'ram so'ziga bo'lak so'zini (masalan, bir to'g'ram go'sht-bir bo'lak go'sht); dasta so'ziga bog'lam, quchoq so'zlarining (masalan, bir dasta gul-bir bog'lam gul-bir quchoq gul) shoda so'ziga hovuch so'ziga (masalan, bir shoda marvarid, bir hovuch marvarid) juft so'ziga par so'zini (bir juft kalish-bir par kalish); to'da so'ziga to'p, gala so'zlarini

(bir to‘da otliq-bir to‘p otliq-bir gala otliq); siqim so‘ziga chimdim so‘zining (masalan, bir siqim to‘proq-bir chimdim to‘proq) singari so‘zlarning o‘zaro ma‘nodosh ekanligini bilib olsa ularning og‘zaki yoki yozma nutqi ancha oshadi.

Tilimizda yarim so‘zining nol butun o‘ndan besh, ikkidan bir, chorak so‘zining to‘rttdan bir, nimchorak so‘zining sakkizdan bir singari ma‘nodoshi ham mavjudki, bularni o‘quvchilarga o‘rgatib borish, ularning nutqini sinonim so‘zlar bilan boyitishning eng qulay usullaridan biridir.

O‘zbek tilida qadimdan qo‘lanilgan va ma‘nosi ko‘pchilik o‘quvchiga tushunarli bo‘lmagan lak, tuman, botmon, chaqirim, farsux, tanob, sadyak misqol, qirot singari so‘zlar ustida to‘xtalish ham maqsadga muvofiqdir. Vaqt o‘lchovini ifodalovchi so‘zlar ustida ish olib borayotganda minut so‘ziga daqiqa so‘zini, lahza so‘ziga soniya, on, zum, pas so‘zlarining ma‘nodosh ekanligini uqtirish bolalarning so‘z boyligini oshirishda samarali ta‘sir ko‘rsatadi. (Masalan, bir minut-bir daqiqa, bir lahza, bir soniya, bir on, bir nafas, bir pas kabi).

Tilimizda qo‘llaniladigan sentner (ts), kilogramm (kg), gektar (ga), tonna (t), litr (l), metr (m), kilometr (km), millimetr (mm), santimetr (sm), singari so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, ayni vaqtda qadimiy o‘lchov birliklarini ifodalovchi so‘zlar haqida ham ma‘lumot berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bir tonob-turli erda turlicha (gektardan gektargacha) qiymatga ega bo‘lgan yer o‘lchovi: Bog‘ning sathini Salim uch yarim tonob, Fazliddin uch tonob mo‘ljalladi. (Oybek, «Qutlug‘ qon»); 2) Gazmetrik sistema qabul qilinganga qadar ishlatilgan 0,71 metrga teng uzunlik o‘lchovi, arshin: Nuriyoy, oyingizdan to‘rt gaz chit olib berasiz, albatta. (Oybek, «Qutlug‘ qon»); 3. Paysa-taxminan 50 grammga teng og‘irlik o‘lchov birligi: Yetmish ikki hunaring bor, lekin humchangda besh paysa jiring yo‘q (A.Qodiriy), (102, 87).

Bolalar nutqini so‘z ma‘nodoshlari bilan boyitishda, ayniqsa berilgan qoliplar asosida so‘z hosil qilishning ahamiyati benihoya katta. (22.10).

«Bir+ot+lar», «dona son+ta», «dona son-larcha\|dona son-+tacha», «dona son+lab\|dona son+larcha», «dona son+ov\|+dona son+ovlon\|dona son+ala» kabi qoliplar berilgan bo'lsa, o'quvchilar har bir qolip asosidagi so'zlarning guruhga ajratishi, hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettirish, berilgan matn yoki gaplarda ma'lum bir ajratilgan shaklning shu ma'noni ifodalovchi boshqa ma'nodoshi bilan almashtirish mumkin. Masalan, bir zamonlar-bir paytlar-bir mahallar-bir vaqtlar: o'n dona-o'nta; ming dona-minglarcha; o'ntacha-o'nlarcha; yuzlab-yuzlarcha; beshov-beshovlon-beshala.

Son turkumining o'rganishda birov, birinchi so'zlarning ma'nodoshi ustida to'xtalish samarali usullaridan, biz son so'z turkmini o'rganishda tajriba sinov guruhlari shu maqsadda bo'ysundirilgan quyidagi topshiriqlardan foydalandik.

1-topshiriq. Gaplarni o'qing, birov so'zining ma'nolariga e'tibor bering. Bu so'zni uning boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib ko'ring.

1. Bu gaplarni birov eshitmasin. 2. Birovga yaxshilik qilsang o'zingga qaytadi. 3. Bolalarning birovi ko'zini chirt yumdi. Qolganlari har joy har joyda bekinishdi. 4. Birovning moliga ko'z olaytirma. 5. Botirlar birov eshitmasin deb sekin sekin qadam bosishdi. (ertakdan). 6. Uzoqdan birovning qorasi ko'rindi. (Almashtirish uchun so'zlar: bitta, birov, biror kishi, hesh kim, kimdir, har kim, alla kim).

2-topshiriq. Gaplarni o'qing. Birinchi tartib sonini quyida berilgan ma'nodoshlari bilan almashtirib, ma'no noaniqliklarini tushuntiring.

1. Karimjon sinfimizdan chiqqan birinchi sport ustasi. 2. Xosilning 80 foizini birinchi navbatda qobul qildik. 3. Milliy istiqlolga 1989 yil 21 oktabrda «Davlat tili haqidagi Qonun»ning qabul qilinishi bilan qo'yildi. 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining birinchi burchidir. 5. Yu.A.Gagarinning nomi tarixda birinchi kosmanavt sifatida qoldi. (almashtirish uchun so'zlar: ilk, eng yaxshi, asosiy, bosh, dastlabki, avvalgi).

3-topshiriq. Birinchi so‘zi va uning ma‘nodoshlari ishtirok etgan so‘z birikmasi yoki gaplar hosil qiling.

Namuna:

Birinchi masala-dastlabki masala-ilk masala-avvalgi masala...Birinchi masala-bosh masala-asosiy masala....

4-topshiriq. Matni o‘qing. Takroriy qo‘llanilgan so‘zlarni ularning ma‘nodoshi bilan almashtirib tahrir qiling.

Rahimjon yugurish musabaqasida birinchi o‘rinni egalladi. Bu uning birinchi g‘alabasi edi. Sinfdoshlari Rahimjonni qizg‘in olqishlashdi. Birinchi do‘sti Salimjon uni rosa maqtadi. Rahimjon musobaqaning keyingi bosqichlarida ham birinchi o‘rinni olishga so‘z berdi.

Xulosa qilib aytsak, maktabda son turkumini o‘rganishda sonlar bilan birga ishlatiladigan hisobni ifodalovchi so‘zlar, so‘z ma‘nolari va uning ma‘nodoshlari ustida ishlash. Sonning ma‘lum bir shakliga shu ma‘noni ifodalovchi boshqa ma‘nodosh shakl topish, berilgan matn yoki gaplarni tahrir qilib takroriy qo‘llanilgan ayrim sonli shu ma‘noni ifodalovchi boshqa ma‘nodoshi bilan almashtirish singari ijtimoiy amaliy ish turlaridan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olmosh turkumining o‘rganishda o‘quvchilar nutqini so‘zning ma‘nodoshlari bilan boyitish. O‘zbek tilshunosligi hamda o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va usuliyatida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida olmoshning faqat ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanishi emas, ravish, fe‘l, taqlidiy so‘zlar ham ishora etishi xususida anchagina fikr bayon etiladi

Biz tajriba-sinov guruhlarida mazkur so‘z turkumida amaldagi dastur va darsliklar asosida 7-sinfning boshida «Ot, sifat, son turkumlari» o‘tilganidan keyin o‘rgandik. (1, 36, 119, 87).

Olmosh o‘quvchilar nutqida uchraydigan so‘zlarni takroriy qo‘lashga barham berishda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi. Shuning uchun nutqdagi

takroriy soʻzlarni olmosh bilan almashtirishni biz nutqiy sinonim sifatida qaraymiz.

Olmosh turkumini oʻrganishda oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishi va nutqini rivojlantirish ikki yoʻnalishda amalga oshiriladi.

1. Olmoshning tilimizda mavjud boʻlgan maʼnodoshlari ustida ishlash orqali.
2. Nutqiy sharoit ot, sifat, sonni ularga ishora qiluvchi va bevosita shu maʼnoni ifodalovchi olmoshlar bilan almashtirish orqali.

Birinchi yoʻnalish boʻyicha qilinadigan ishlar koʻproq koʻrsatish, soʻroq, belgilash, boʻlishsizlik va gumon olmoshlariga dahldordir. Koʻrsatish olmoshi mavzusini oʻrganayotganda oʻquvchilar u, bu, shu, oʻsha, ana, mana, ana shu, mana shu, anavi, manavi singari soʻzlarga duch keladi. Bu soʻzlar oʻquvchilar tomonidan roʻyxat qilinar ekan, oʻqituvchi ularning qay biriga qaysi bir olmosh maʼnodosh ekanligini soʻrashi yoki koʻrsatish olmoshlari ishtirok etgan gapni berib, ajratilgan olmoshlarni shu maʼnoni ifodalovchi, yoki shunga yaqin maʼnoni ifodalovchi qaysi olmosh bilan almashtirish mumkinligini soʻrashi mumkin.. Oʻquvchilarga 1. Bunday chiroyli koʻylaklarni Nafisaxon tikadi. 2. Bu qiz menga juda tanish tuyildi. 3. Men mana shu gullarga suv qoʻydim. 4. Mana bu kitoblarni oʻqiganmisiz. Singari gaplarni berib, undagi koʻrsatish olmoshlarni shu maʼnoni ifodalovchi boshqa bir koʻrsatish olmoshi bilan almashtirish talab etilayotgan boʻlsa, ular shunday chiroyli koʻylaklarni faqat Karimaxon tika oladi. Shu qiz menga tanish tuyildi. Men anavi gullarga suv qoʻydim. Manabu kitoblarni oʻqiganmiz. kabi gap hosil qiladi. Biz tajriba-sinov sinflarida amaldagi darsliklarda berilgan, 59-mashqdan uni ikkinchi topshiriq qilib, koʻrsatish olmoshlarini maʼnodoshi bilan almashtirishni lozim topdik.

«Soʻroq olmoshlari» mavzusini oʻrganishda ham xuddi shunday ish usulidan foydalandik. Soʻroq olmoshlaridan baʼzan qanday?, qanaqa?, qayerda?, qayoqdan? Soʻroqlarini ishlatish oʻquvchilarning soʻz boyligini oshiradi.

Bu olmoshlar o'rganilayotgan o'quvchilar e'tibor berilgan gaplarni so'roq olmoshlarining gapning mazmunini saqlagan holda boshqa so'roq olmoshi bilan almashtirish yoki qanday?, qanaqa?, qaysi?, qayer?, qayoq? Singari qatorlarni berib ular yordamida gaplar tuzdirishga qaratilishi mumkin. Ayniqsa, ana shu sinonimik qatorlardagi har bir so'zni bitta gap tarkibida almashtirib ko'rish o'rganilayotgan til hodisasining mohiyatini chuqurroq o'rganishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Masalan savdo do'koniga qanday mollar keltirildi. (Savdo do'koniga qanaqa mollar keltirildi?) kabi.

Bu o'rinda shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, o'quvchilar barcha holda ularning biri o'rniga ikkinchisini qo'llay olmasligi mumkin. Shuning uchun almashtirish mumkin bo'lmagan holatlarga doir misol keltirish va uning sababini o'quvchilardan so'rash maqsadga muvofiqdir. Belgilash olmoshlarini o'rganayotganda barcha o'rinda bari, barchasi, hammasi, jami, jamisi, butun so'zlari, gumon olmoshlaridan allanima o'rnida, allaqaysi, allaqanday bo'lishsizlik olmoshli heshqanaqa, heshqanday, heshqaysi, hech nima o'rnida hech narsa so'zlarini qo'llashga oid mashqdan foydalanishni maqul ko'ramiz.

Biz tajriba sinov guruhlarida berilgan mashqlar bilan bir qatorda quyidagi topshiriqlardan foydalandik.

1-topshiriq. Berilgan gaplardan ajratilgan so'zlarni uning ma'nodoshlari bilan ajratamiz.

1. Har bir qiyinchilikdan so'ng bir rohat bor. 2. Hamma narsaning otasi-mehnat. 3. Har dardning o'z da'vosi bor. 4. Ulug'bek o'z saroyida ilmu ma'rifatga chinakam berilgan har bir kimsani qabul qilaveradi. (L.B). 5. Har bir kishining hayotida unutilmas kunlar bo'ladi. 6. Hammada ham bir istak bir orzu bo'ladi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarda nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos tushadigan olmoshni qo'yib ko'chiring. Bundan qanday xulosa chiqara olasiz?

1. *Hasadchining jismu jonnini noayon....., qurt-qumursqalar kemradi. (I.X.)*
2. *Bisotimda.... yo‘q.* 3. *Hamida kechagi kitob to‘g‘risida.... Demadi.* 4. *Javoning orqasida..... shitirlaganday bo‘ldi.* 5. *Tashqaridan.....ning ovozi eshitildi.* 6.yelkasidan suyab turg‘azadi. 7. U o‘ziga kelib, achchiq-achchiq yig‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish gapdagi ot, sifat, sonlarni olmosh bilan almashtirishga oid ishdir. Biz olmoshning ot, sifat, son, fe‘l, ravish, taqlidiy so‘zlar, gap va butun boshli matnga ishora etishga, ya‘ni ular o‘rnida qo‘llanishiga va ular bajargan vazifani bajarishga nutqiy sinonimiya hosidasi sifatida qaradik. Shu bois tajriba-sinov guruhlarida o‘quvchilarga berilgan gaplarda ajratilgan so‘zni shu so‘zga ishora etuvchi olmosh bilan almashtirish gap juftlari yoki matnda takror qo‘llangan so‘zlarni olmosh bilan almashtirish (matnni tahrir qilish), nuqtalar o‘rniga zarur olmoshni qo‘yishga, oid topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etdik. Quyida ana shunday topshiriqlardan namuna keltiramiz.

1-topshiriq. Berilgan gap juftlarida takror qo‘llanilgan so‘zni olmosh bilan almashtiring.

1. *Rahimdon-musobaqa g‘olibi. Rahimjon sport musobaqsining faol qatnashchisi.* 2. *Ikromjon bu anhorda necha martalab cho‘milgan. Cho‘milish Ikromjonning sevgan mashg‘uloti.* 3. *Firuza hovliga tushib, shabnamda qiyg‘os ochilgan atirgullarni to‘yib-to‘yib hidladi. Gulni parvarishlash Feruzaning jonu dili.* 4. *Mashhada Alisher butun vujudi bilan o‘qishga berildi. Chunki kitob mutolaa qilish Alisherning sevimli mashg‘uloti edi.*

2-topshiriq. Berilgan matnni tahrir qiling. Undagi takror qo‘llangan so‘zlarni shu so‘zlarga ishora etuvchi boshqa so‘zlar bilan almashtiring.

Maktabimiz bog‘ida

Maktabimizning o‘ng tomonida kattagina bog‘ bor. Bu bog‘ o‘quvchilar qo‘li bilan bunyod qilingan. Bunda turli xil mevali daraxt: olcha, gilos, o‘rik, shaftoli o‘sadi. Bog‘dagi gullarni o‘quvchilar parvarish qiladi. O‘quvchilar

darsdan bo'sh vaqtlarida bog'dagi turli xil gullarni parvarish qilishadi. Bog'da sadarayhon, atirgul, safsargul, binafsha kabi gullar o'sadi. Biz gullarni sevamiz va parvarish qilamiz.

3-topshiriq. Quyida berilgan matnni o'qing. Takror qo'llangan so'zlar o'rnida qanday so'zlar qo'yish mumkinligi haqida xulosa chiqiring.

Samarqandda muttasil qirq yil hukmronlik qilgan Ulug'bek zamonida yangi binolar qad ko'tadi. Ammo bobosi asosan machit, maqbara qurdirgan bo'lsa, Ulug'bek fan saroylari qurdiradi. Ulug'bek harbiy shuhrat ketidan quvmadi. Hamma narsadan ko'proq Ulug'bekni matematika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida Ulug'bek beqiyos yuksaklikka ko'tarildi, butun jahonga dong toratdi. (L.Bat).

O'quvchi matnni tahrir qilish jarayonida faqat takroriy so'zni olmosh bilan emas, so'zni so'z bilan, so'zni boshqa so'zlar bilan, so'zni ibora bilan, so'zni tasviriy ifoda bilan, so'zni ramziy ishora bilan almashtirish mumkin.

Xullas, «Olmosh» ni o'rganish jarayonida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish bir tomondan, ma'nodosh olmoshlar ustida ishlash orqali va ikkinchi tomondan, ot, sifat, son va hokazo olmosh sinonimiyasini keng qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Fe'l turkumini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish. Barcha turkiy tillar singari ham fe'l eng katta va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ancha murakkab so'z turkumlaridan biridir. O'quvchilar mazkur so'z turkumi bo'yicha dastlabki ma'lumotni boshlang'ich sinfda oladi. Ular fe'lning ma'nosi, so'roqlari, bo'lishli va bo'lishsiz shakli, tuslanishi yuzasidan zaruriy bilim ko'nikma va malaka hosil qilganlar.

Ona tilining izchil kursini o'rganishda ana shu bilimlarga asoslangan holda morfologik belgisi va sintaktik vazifasi, fe'l shakllari (harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh), fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakli, tuslovchi qo'shimchalar va

ularning imlosi, fe'l zamoni, fe'lning nisbati, (aniq, majhul, o'zlik, orttirma, birgalik, nisbat) fe'l mayllari (xabar, bo'yruq-istak, shart mayli) qo'shma, juft, takroriy fe'llar hamda ularning imlosi, fe'llarning yasalishi singari mavzular o'rganiladi.

Keyingi yillarda loyiha tariqasida nashr qilingan muqobil dasturlarning ayrimida fe'lning ma'no guruhlari xususida ham ma'lumot berish ko'zda tutiladi. O'zbek tilida fe'l turkumiga kiruvchi ikki yuzga yaqin sinonimik uya mavjud bo'lib, maktabda mazkur so'z turkumini o'rganishda o'quvchilarni ana shu ma'nodosh so'zlar olamiga olib kirish, ular nutqini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmash lozimki, tilimizda tez-tez qo'llaniladigan harakatni ifodalovchi so'zlarning bir-biri bilan ma'nodosh ekanligi boshlang'ich sinfdan ularga ma'lumdir. Izchil kursni o'rganish jarayonida ularga notanish bo'lgan so'zlar zaxirasiga tayanamiz va o'quvchilarni ularga notanish bo'lgan so'zlar bilan tanishtiramiz. Shuni inobatga olib amaldagi dastur asosida o'quv soatlarining taxminiy taqsimotida 5-sinfda fe'l turkumi haqida umumiy ma'lumot berilgach, antonim va sinonim fe'llar yuzasidan lug'aviy-imloviy mashg'ulot o'tkazish nazarda tutiladi.

Bu dars mashg'ulotida berilgan fe'llarga ma'nodosh topish, berilgan gaplarning mazmuniga qarab qavs ichidagi sinonim so'zlardan mosini qo'yish, nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos tushadigan ma'nodoshlarni topib qo'yish, berilgan fe'llardan sinonimik uyalar hosil qilish va bu uyalarni mustaqil davom ettirish yo'li bilan o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda egallangan ko'nikma, malakalari mustahkamlanadi hamda takomillashtiriladi.

Quyida ayrim topshiriqlardan namunalari keltiramiz:

-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Ajratilgan fe'llar tarkibini aniqlang, ularga ma'nodosh toping.

1. Rahimjon savol berdi – Durdona javob berdi. 2. O'quv bo'limi mudiri arizaga «ruxsat berilsin», - deb yozdi va imzo chekdi. 3. Shirin savol bersang,

shirin javob olasan (maqol) 4. Qo'l qo'yilgan arizani sinf boshlig'i o'qituvchiga berdi. 5. Bog'larni, dalalarni sayr etdi.

-mashq. Berilgan qo'shma fe'l juftlari orasidagi farqni tushuntiring, ularga ma'nodosh toping. Bu fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

1. Obod qilmoq - obod bo'lmoq. 2. Baland qilmoq - baland bo'lmoq. 3. Yashil qilmoq - yashil bo'lmoq. 4. Bog' qilmoq - bog' bo'lmoq. 5. Juft qilmoq - juft bo'lmoq.

-mashq. Murur fe'llari va uning ma'nodoshlarini toping hamda gap tuzib qo'llash bo'yicha sinf musobaqasini o'tkazing

Fe'l turkumi yuzasidan beriladigan izchil bilim fe'lining noaniq shakli (harakat nomi) ni o'rganish bilan boshlanadi. Mazkur mavzuni o'rganishda o'quvchilar fe'lining bo'lishli shaklini hosil qiluvchi –moq, -sh, -ish, -v, -uv ham bu bo'lishsiz shaklini hosil qiluvchi –ma lik qo'shimchasi fe'l o'zagiga qo'shilib harakat nomi hosil qilishini bilib olishgach, shu qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan fe'l sinonimlariga oid ijodiy-amaliy ish bajaradi. Masalan, o'quvchilarga –sh, -ish qo'shimchalari yordamida harakat nomi hosil qilish topshirilgan bo'lsa, ular ishlash-mehnat qilish; so'zlash-gapirish-aytish; fikrlash-o'ylash-tafakkur qilish; kulish-xoxolash-qahqahalash kabi fe'llarni hosil qilishi mumkin. Biz tajriba-sinov guruhlarida darslikda berilgan mashqlar bilan bir qatorda quyidagi mustaqil ish turlaridan foydalanishni tavsiya etdik.

- mashq. 1-topshiriq. Berilgan o'zakdosh so'zlarni qo'shimchadosh guruhlarga ajrating va hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettiring.

O'qish-o'quv-o'qimoq, bichish-bichuv-bichmoq, chizish-chizuv-chizmoq, tanishish-tanishuv-tanishmoq, yugurish-yuguruv-yugurmoq.

O'quvchilar tomonidan bajariladigan bunday ijodiy-amaliy ish turlari ma'nodosh so'zlar yuzasidan kengroq ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

«Fe'l zamonlari» mavzusini o'rganishda ko'proq amaliy yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirishni maqsadga muvfiq deb bilamiz, chunki mazkur mavzuni o'rganishda ko'zlanadigan asosiy maqsad fe'l zamoni tushunchasi yoki o'tgan,

hozirgi, kelasi zamon tushunchalarga ta'rif tushunchasi yoki o'tgan, hozirgi, kelasi zamon tushunchalariga ta'rif berishdangina iborat bo'lmay, nutqda fe'l zamonlaridan unumli foydalanish malakasini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Fe'l zamonlarini o'rganishning amaliy yo'nalishini kuchaytirish ularni amaldagi dastur va darsliklarda berilganidek, mayda-mayla bo'laklarga bo'lingan holda bir necha soat davomida emas, balki yirik paradigmatic shaklda bir necha soat davomida o'rganib, qo'yilgan vaqtni zamon shakllarini nutqiy faoliyatda qo'llashga bag'ishlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Paradigma (grekcha paradigma-misol, namuna) til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiyat ma'nolariga ko'ra farqlanuvchi sistemasi til hodisalarini o'ta maydalashtirilgan holda emas, balki yirik bloklarda (paradigmatik shaklda) o'rganish g'oyasi metodika fani uchun yangilik emas, albatta. Bu g'oya ilk marta aka-uka Berdiyevlar tomonidan matematika o'qitish jarayonida sinab ko'rildi. O'zbek tilini o'qitish jarayonida til materiallarini yirik paradigmatic shaklda o'rgatish birinchi marta A.G'ulomovning doktorlik dissertatsiyasida ilmiy asoslanib berildi.

Biz fe'l zamonlarini ham xuddi shu shaklda o'rganish tarafdorimiz. Birinchi soat mashg'ulotda fe'l zamonlari qiyoslanadi, berilgan so'zlarning (masalan, keldi, kelyapti, keladi) ma'no farqlari sharhlanadi, fe'lning o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamoniga mustaqil ravishda ta'rif beriladi. Iqtisod qilingan soatlarda turli xildagi ijodiy-amaliy ish bajarilib o'quvchilarning so'z boyligi oshiriladi; so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakasi shakllantiriladi; gap va matn ustida ishlashga e'tibor kuchaytiriladi. Biz tajriba-sinov guruhlarida fe'l zamonlarini xuddi shu shaklda o'tib, o'quvchilar nutqini fe'l sinonimlari bilan boyitish maqsadida quyidagi topshiriqlardan foydalandik.

Tilimizda shaklan bir-biriga yaqin, ammo turli ma'nolarni ifodalab keladigan fe'llar ham bor. Masalan, o'tqazdi, o'tqizdi, o'tkazdi singari fe'llar sirasiga kiradi O'quvchilar bunday fe'llarning ma'nosini faqat gap tuzish orqali bilib oladilar.

Fe'l turkumini o'rganishda ma'lum bir gapda qo'llanilgan fe'llarni ularga ishora qiluvchi so'zlar bilan almashtirish hodisasi nutqiy sinonimiyaga taalluqlidir.

Shunday qilib, «Morfologiya» bo'limini o'rganishda o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish va nutq sharoitida ma'nodosh so'zlardan to'g'ri, o'rinli foydalanish malakasini takomillashtirish, o'rganilayotgan til hodisalari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilishi va materialning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

So'z turkumlarini o'rganishda leksik sinonimlar ustida ishlash nutqiy sinonimlar ustida ishlash bilan qo'shib olib borilishini talab etadi. Buning uchun faqat berilgan so'zlarga ma'nodosh topish bilan chegaralanmay, gap va matnda sinonimlarni o'rinli qo'llash, zarurat tug'ilganda ortiqcha takrorga barham berish maqsadida «so'z-frazeologik birikma», «so'z-tasviriy ifoda», «so'z-olmosh», «so'z-ramziy ishora» kabi imkoniyatlarni ishga solish lozim.

Tilning mazkur bo'limini o'rganishda matn ustida ishlash va matn yaratish ishimizning bosh mezoniga aylanmog'i lozim. Chunki, sinonimik imkoniyatlarning amaliy faoliyatiga ko'chish darajasi yaratiladigan matnlarda namoyon bo'ladi. Shu bois «Morfologiya» bo'limini o'rganishda mashg'ulot ko'p holda gap yoki matn tahlili bilan boshlansa matn yaratish bilan yakunlanishini samarali hol deb bilamiz.

Xullas fe'l turkumini o'rganishda leksik sinonimiyalar ustida ishlash bilan bir qatorda nutqiy sinonimlar ustida ishlash ham maqsadga muvofiqdir. Nutqiy sinonimlar ham leksik sinonimlar kabi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakasini takomillashtiradi, ham uning go'zal, ta'sirchan, badiiy bo'lishini ta'minlaydi.

III BOB. MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR TADBIQI

1. So'z ma'nodoshlari ustida ishlashda o'yin texnologiyalarning axamiyati

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: an'anaviy ta'lim va noan'anaviy ta'lim

An'anaviy ta'lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Ta'limga an'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, o'qituvchi ma'lum axbarotni gapirib beradi, tushuntiradi, o'quvchi esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani, asosan, esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabaning o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari –ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida

nomunosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Ta'limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shaklida quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar guruhiy yo'sinda o'tkaziladi:

- mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o'rganish sur'atining bir xilligi;
- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada - laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rganganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun ma'suliyatini pasaytirgan.

Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning «loyihalar metodi» deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir ob'ektning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarning aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi yigirma yil maboynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalangan darsni o'rganishdan darsni elementlar bo'yicha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan

N.M.Maxmudov, G.D.Krilova, F.F.Korolev va E.G.Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hakoazolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70- yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar.

Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak? Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgariidek, dars ma'lum vaqt maboynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari – uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hakoazol bilan uzviy birlikda aks ettiradi. «Darsni ikki jihatdan: umuman ta'lim jarayoni va ta'limni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M.I.Mahmudov). Ta'limning umumiy jarayoni sifatida qaralsa, dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilangan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi ob'ekt – o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtai nazardan quyidagicha ta'riflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lim jarayonida o'qitish kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil

vaqt ichida) muntazam qo'llaniladigan boy va o'zgaruvchan shaklidir» (qarang: M.I.Mahmudov. «Sovremennyy urok».).

An'anaviy ta'lim texnologiyasining **afzalliklari**: ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydaliligi; o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi; vaqtdan unumli foydalanish; aniq ilmiy bilimlarga tayanish

Kamchiliklari: o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar; o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi; o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi; eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmaganligi sababli, guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin; mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi⁴.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgandir.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Dars tuzilmasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasini o'z navbatida uch qismga bo'lish mumkin: **hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot (Loyiha)**

Hamkorlikda o'rganish – o'quvchilarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv (Esda saqlab qolish) faoliyatini ta'minlovchi, o'quvchilarning kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlashi evaziga ta'lim olishidir. Mazkur texnologiyadan foydalanishda kitob bilan ishlash, o'quv suhbatlari,

⁴ Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 11.

davra suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni qo'llash mumkin.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini sinfxonada yaratish hamda ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi, o'z faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarini o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu ta'lim texnologiyasiga ishbop o'yinlar va rolli o'yinlar kabi metodlarni kiritish mumkin.

Tadqiqot – o'quvchilar tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan vqa shunga undaydigan usullar yig'indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi, dars jarayonida o'quvchilar tomonidan savol qo'yish va ularga javob izlashga qiziqishini uyg'otishga qaratilgandir. Bu texnologiya bilan o'qitish o'quvchilarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyiha metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi⁵.

Ta'lim texnologiyalari bo'yicha metodlar tizimi⁶

An'anaviy ta'lim	Hamkorlikda o'rganish	Modellashtirish	Tadqiqot
Ma'ruza, namoyish, videousul, to'rt pog'onoli usul, suhbat, ko'rgazmali	aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, davra suhbat,	ishbop o'yin, rolli o'yinlar va boshqalar	muammoli vaziyat, loyihalash, yo'naltiruvchi matn

⁵ Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 9.

⁶ Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 10.

usul	zigzag texnikasi, o'rgimchak to'ri.		
------	--	--	--

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
 - b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
 - v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
 - g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va h.k
- Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:
- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish;
 - turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlar tashkil etish;
 - darslarni kuzatish va ularda ZPT elementlarini qo'llash darajasini oshirish;
 - ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish.
 - dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o'rniga aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish va boshqalar⁷.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasining *afzalliklari*: o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi; o'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi; tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi; o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari kashf etilishi; motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi; o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi; muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi; o'z o'zini baholashning o'sishi; o'quvchilarning predmetning

⁷ Yo'ldoshev I., Mirzarahimova M. Ona tili va adabiyotdan noan-anaviy darslar. –Toshkent. 2006. -6 b.

mazmuniga o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati; mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi; nafaqat mazmunini o'zlashtirishga balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishiga yordam berishi; muammolarni yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari: o'qituvchining darsga tayyorlanishi uchun ko'p vaqt talab etilishi; o'quvchilarni har doim ham to'liq nazorat qilish imkoniyatining pastligi; juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi; kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning past baho olishi; o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi⁸.

Ma'lumki, noan'anaviy ta'limga interfaol usullar jadallik bilan kirib kelmoqda. Shu o'rinda Sh.Yo'ldoshevaning kuzatishlari asosida chet tili amaliyotida interfaol usullardan foydalanish ko'pchilik hollarda kutilgan samarani bermasligi haqidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz:

1. O'quvchi, avvalo, an'anaviy usulda ta'lim olganligi tufayli tilni jonli muloqotda ishlatish va bunday muloqot olib borish ko'nikmasini egallamagan.

2. O'quvchi, ayniqsa, kattaroq yoshdagi til o'rganuvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan tilning oddiy me'yorini o'z ongiga singdira olmay qiynaladilar.

3. O'quvchi, jonli suhbatga kirishish uchun etarli lug'at boyligiga ega emas. Interfaol usulda u bunday suhbatga jalb qilinsa, shu qadar ko'p xatoga yo'l qo'yadiki, bu tajriba teskari natija berishi, ya'ni talabanning hafsalasini pir qilishi mumkin.

4. O'quvchi, muloqotga kira olganda ham o'zining xatolari ustida ishlashga imkoniyati bo'lmaydi, shuning uchun uning nutqida o'sish bo'lmaydi.

5. O'quvchi, o'z fikrini chet tilida ifodalamoqchi bo'ladi, lekin jonli muloqotga o'rganmagan, qoidalarga mos kelmaydigan so'z, grammatik shakllar va sintaktik qurilmalar uchrab qolsa, u dovdirab qoladi va suhbatdan o'zini chetga oladi.

⁸ Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 11.

6. Jonli nutqda aytilayotgan gaplarning ma'nosini tez ilg'ab olish talabaga juda og'ir tuyuladi.

7. Chet tili darslarida, muloqotga odatda, bir-ikki o'quvchi faolroq qatnashadi, ko'pchilik esa tinglovchi bo'lib qolaveradi.

8. O'qituvchi darsda keragidan ortiq gapiradi va o'quvchilar vaqt byudjetiga zarar keltiradi.

9. Ba'zi o'quvchilar juda uyatchan va tortinchoq bo'lganliklari uchun suhbatda ishtirok etishmaydi. Bunda ularda tinglab eshitishi ko'nikmalari yaxshi rivojlanadiyu, og'zaki nutq malakalari esa o'smay qoladi: talaba tushunadi, ammo gapira olmaydi.

10. O'quvchilar suhbat mavzusi yuzasidan kerakli ma'lumotga ega bo'lmaganliklari tufayli, muloqotga kirisha olmaydilar.

11. Muloqot vaqtida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolarni o'qituvchi o'sha zahoti to'g'rilab turadi, oqibatda o'quvchida gapirishga bo'lgan ishtiyoq so'nadi.

12. Muloqotga jalb etish uchun savol berilganda ba'zida o'quvchi juda past ovozda javob bergani tufayli ishtirokchilar uni eshitishga qiynaladilar.

13. O'qituvchi tomonidan muloqot uchun tanlangan mavzu, muammo o'quvchilarni qiziqtirmasligi mumkin, oqibatda, ular suhbatda ishtirok etmaydilar.

14. Odatda ko'pincha guruhdagi o'quvchilarning bilim darajalari turlicha bo'ladi. Yaxshiroq biladigan o'quvchilar gapirganda bo'shroq bilimli o'quvchilar ularni tushunmaydi va bular gapirganda yaxshiroq bilgan o'quvchilar esnab o'tiradi⁹. Ushbu xulosalarning ayrim bandlari o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish, shuningdek, ayrim adabiyot darslarida o'tkazilayotgan interfaol darslar uchun ham tegishlidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, noan'anaviy ta'lim texnologiyasi quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

⁹ Кўлдошева Ш. Чет тили амалиёт дарсларида интерфаол усулларни қўллашнинг айрим муаммолари.// Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент: 2004. -№ 1. -Б. 78-80.

- o‘z nuqtai-nazari va fikr-mulohazalarini aniq, ishonchli tarzda bayon qilishga o‘rgatadi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- axborot va uning manbalarini tadqiq qilish va baholashga o‘rgatadi;
- yuzaga kelgan vaziyatlarning sabab-oqibatli munosabatlarini topish, tahlil qilish, aloqalarini aniqlashga o‘rgatadi.
- muammolarni qo‘yish va ularning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- shaxslararo muloqot va munozaralar yuritish malakalarini rivojlantiradi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi¹⁰.

Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo‘lmoqda. Darslarda qo‘llanadigan interaktiv usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ularni mukammal savodxonlik drajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Ona tili darslarida o‘tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o‘yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o‘quvchilar ikkiga bo‘linib gap tuzadilar. O‘yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak, gaplar ma’lum bir mavzuga oid bo‘lib, natijada matn tuziladi. Masalan, *odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o‘zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi*, kabi.

Barkamol shaxsni shakllantirish uchun faoliyatda o‘quvchining o‘zi bevosita ishtirok etishi bilim olishga ongli ehtiyoj va qiziqishini uyg‘otadi.

9-sinfda qo‘yidagi modulga asoslangan darsning amaldagi ko‘rinishini tavsiya qilamiz.

¹⁰ Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 11.

1-modul

Uni quyidagicha loyihalashtirish mumkin:

a) “Muvashshah” hosil qilish;

b) matnni tinglash, ma’qul bo’lgan qismlarni xotirada tiklash hamda buning sababini aniqlash;

v) matn ichidan atamalarni topish va uni sharhlash;

Darsning 1- (a) qismi. Yozuv taxtasining ikki tomoniga bir xil soʻzlar birikmasi yoziladi, ya’ni bu usul muvashshah deb ataladi avvalo, muvashshah nima ekanligi haqida o’qituvchi o’quvchilarga tushuncha beradi.

Ma’lumki, muvashshah badiiy adabiyotda bayt yoki misra boshidagi harflarni to’plagan kishi ismi chiqadigan hazal yoki she’r bo’lib, biz uni ona tili darslarida qo’llash bilan adabiyot va ona tili fanlarini bir-biriga yaqinlashtirdik. Sinfdagi o’quvchilar ikki guruhga bo’lindilar. Taxtaga Alisher Navoiy so’zi vertikal holda yozib qo’yiladi. Har bir guruhdan bittadan o’quvchi navbatma-navbat chiqib yozuv taxtasidagi har bir so’zning bosh harfiga mos kuluvchi ona tili faniga oid atamalarni yozadilar. Albatta, qaysi guruh tez va to’g’ri to’ldirsa, u rag’batlantiriladi.

Masalan,

1-guruh	2-guruh
Atama	Atov gap
Leksema	Lug’at
Ibora	Istak gap
Shaxsi ma’lum gap	Shaxs-son qo’shimchasi
Yetakchi fe’l	Yetakchi fe’l
Ravish	Ritorik so’roq gap
Nomshunoslik	Nisbat
Antonimlar	Aniq nisbat
V ergul	Voqea-hodisa otlari

Olmosh	Ozaytirma sifat
Izohlovchi	Ilmiy uslub
Yig‘iq gap	Yig‘iq gap

Modul darsining nazariyaga asoslangan 2 (b) – qismida ona tili darsligidagi mashqni yoki xohlagan matnni o‘qituvchi talaffuz me‘yorlariga rioya qilgan holda yod aytishi yoki ifodali o‘qib berishi yoxud kompyuterga kiritilgan variantlarni tavsiya etishi ham mumkin. Masalan, “Suvning tomchisi ham suv” matnini havola qilamiz:+-

Suvning tomchisi ham suv

Biz hamma vaqt hamma joyda “Nonni uvol qilmang, non aziz”, “Nonning ushog‘i ham non” deymiz. To‘ylarda, yig‘inlarda hatto uyda dasturxon atrofida nonushtaga o‘tirganimizda ham keragidan ortiqcha non sindirilsa, “Qo‘ying, ushatmang, nonning ortiqchasini uvol qilmang”, deymiz.

Ammo suvni bemalol isrof qilish, oqizish mumkinmi? Suv o‘tkazgich jo‘mraklaridan suv to‘xtamay oqib yotsa ham “Hoy, suvni bekordan bekorga sarflama, uvol qilma, to‘xtatib qo‘y”, deb aytmaymiz. Vaholanki, ana shu suv bo‘lmasa, bug‘doy qayda, un qayda, non qayda?! Tejashni suvdan, suv qatrasidan boshlamoq kerak. Uvolni, savobni izlamoq kerak. “Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, yoki “Toma-toma ko‘l bo‘lur” deb ona xalqimiz bejiz aytmagan. Nonning uvog‘i ham non bo‘lganidek, suvning tomchisi ham suvdir. Gohida suv uvolini o‘ylab hayron qolaman. Agar bizni uvol tutsa, faqat suvning uvoli tutadi.

Ko‘pincha ko‘cha-ko‘yni to‘ldirib ibodat uchun masjidga o‘tib ketayotgan mahalladoshlarimizni ko‘rib xayolga cho‘maman. Ha, ular savob uchun namoz o‘qishi – ibodat, zakot berishi – ibodat. Odamlarning joniga oro kirib og‘ir yumushini engil qilish ham ibodat, savob hisoblanadi. Lekin ibodatning kattasi, savoblarning ulug‘i ham bor. Suvni tejash, pokligini, sofligini, tozaligini, sifatini

saqlash, uvol qilmaslik savoblarning eng kattasidir, ibodatlarining eng ulug'idir, amallarning eng chiroylisidir.

Faxriddin Turg'oniy o'z davridayoq suvlarni iflos qilmaslik haqida o'ta ta'sirli, foydali fikrlar bildirib, shunday she'rlarni yozib qoldirgan edi.

*Bugun chashma suvini qilsang agar xor,
Boshqa icholmassang bu suvdan zinhor.*

Hurmatli o'quvchilar, ona Vatanga, o'zimizga, avlodlarimizga zarar keltirayotganimizni, iste'mol qiladigan oziq-ovqatlarga og'u-zahar solayotganimizni, qolaversa o'zimizni o'zimiz zaharlayotganimizni bilyapmizmi, sezyapmizmi? O'z rizq-ro'zimizni qismaylik, o'z umrimizga, bola-chaqalarimiz umriga o'zimiz zomin bo'lmaylik.

Oxir-oqibatda, biz oqar suvlarga tashlab yuborgan oqavalar, axlat va kimyoviy chiqindilar Orol dengiziga etib borguncha achib, sasib, qurib, zaharzaqqumga aylanib, havoga ko'tarilib, shamollar bilan qaytib, yana boshimizga yog'ilyapti. "Qaytar dunyo" deb shuni aytsalar kerak.

Falsafiy mushohada qilishga asoslangan bu matnni tinglaganlaridan so'ng o'qituvchi: sizlarga matnning qayerlari yoqdi, nima uchun deb so'raydi. So'ng shu asnoda munozara tashkil qilinadi.

Ular matndagi o'zlari ta'sirlangan joylarni birma-bir aytib beradilar hamda nima uchun shu jumlar ta'sirli ekanligini izohlaydilar.

1-o'quvchi: Menga suv bo'lmasa, bug'doy qayda, un qayda, non qayda, degan jumlar yoqdi. Chunki, haqiqatan ham, rizqimiz bo'lgan nonning dasturxonimizga kelishi ana shu suvga bog'liq ekanligini ko'pchilik xayoliga keltirmaydi. Rosti, men ham bu haqda o'ylamagan ekanman.

2-o'quvchi: Suvni tejash, pokligini, sofligini, tozaligini, sifatini saqlash, uvol qilmaslik savoblarning eng kattasidir, ibodatlarning eng ulug'idir, amallarning eng

chiroylisidir degan jumla meni lol qoldirdi. Chunki suv – alloh tomonidan berilgan ulug‘ ne‘mat. Shu ne‘matni toza, pokiza saqlamoq ham bizning milliy urf-odatlarimizdan biridir...

Shunday qilib darsda bir necha o‘quvchilar o‘z fikrlarini, matndagi yoqqan joylarini aytib, izohlab beradilar.

Har bir o‘quvchi fikr bildirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Matn ichidagi so‘zlarni eslab qolish qobiliyati sinab ko‘riladi, fikrlar charxlanadi.

Fikrlash bilan birgalikda so‘zlash qobiliyati ham rivojlantiriladi. Chunki ob‘ektiv borliqni idrok etish, his qilish samaradorligi, voqealarni topish, tahlil qilish, o‘rganib olishga bog‘liqdir.

Shundan so‘ng modul darsining 3-(v) qismi boshlanadi.

O‘quvchilar matn ichidan “Muvashshah”dagi ona tili faniga oid atamalarni topadilar. Har bir guruh o‘z “Muvashshah”ini to‘ldiradi, ya’ni:

1. Atama: matnda mavjud emas.
2. Leksema: biz, hamma. Suv, ko‘l, zakot, bugun, chashma, og‘u, zahar, dunyo...
3. Iboralar: “Odamlarning joniga oro kirish”, “qaytar dunyo”
4. Shaxsi umumlashgan gap: Bugun chashma suvin qilsang agar xor, Boshqa icholmassan bu suvdan zinhor.
5. Yetakchi va ko‘makchi fe‘llar: yozib qoldirgan, to‘xtatib qo‘y, o‘ylab hayron qolaman
6. Ravish: bekordan-bekorga, qatra-qatra, toma-toma, bugun, hamma vaqt, hamma joyda, zinhor.
7. Nomshunoslik: Faxriddin Turg‘uniy, Orol dengizi...
8. Antonimlar: mavjud emas,
9. Vergul: non aziz, ushog‘i ham aziz. Vaholanki, savoblarning eng kattasidir, ibodatlarining eng ulug‘idir
10. Olmosh: biz, ana shu, o‘z, shunday, o‘zimizga, shuni...
11. Izohlovchi: mavjud emas.

12. Yig'iq gap: Non aziz.

Shunday qilib, darsni yuqorida ko'rsatilganidek, loyihalashtirish o'quvchilarni faollashtiradi, sergaklikka chorlaydi, qoidalarni anglash va fikrlashga, ya'ni nazariyani amaliyotda qo'llash natijalarining ijobiyligiga olib keladi.

Ma'lumki, modul bu o'quv materialining mantiqiy yakunlangan bir bo'lagi hisoblanadi. Ana shuni hisobga olib "Ona tili" fanining har bir bo'limini tugatgandan so'ng yuqoridagi kabi modulli darslarni tashkil qilish, loyihalash mumkin. Uning afzalligi shundaki, o'quvchilar muammoni o'z qiziqishlari asosida hal qiladilar. Qiziqish natijasida, albatta, tafakkurda rivojlanish sodir bo'ladi. Ular tinglaydilar, tinglayotgan vaqtda nazariy bilimni xotiraga keltiradilar, uning oqibatida bahs-tortishuvlar uchun imkoniyat yaratiladi, mustaqil fikr ifodalanadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini, iqtidorlarini ko'rsata oladilar, qiziqishlar muhim zaruriyatga aylanadi.

2. Ona tilidan bir soatlik dars ishlanma

Sinf: 5-sinf

Dars mavzusi: Ma'nodosh so'zlar

Talimiy maqsad: O'quvchilarga ma'nodosh so'zlar hamda ularning nutqdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilar bilan do'stlik ahllik mavzusida suhbat o'tkazish va hamjihatlik inoqlikning ahamiyatini qadrlashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning ma'nodosh so'zlardan o'z nutqida foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

Darsning usuli: Ertak

Darsning jihozi: plakatlar, tarqatma materiallar darslik.

Darsda foydalaniladigan metod va usular: “Nuqtalar o‘rnini so‘zlar bilan tez to‘ldir” o‘yini test.

Darsning borishi: Dars avvalgi mashg‘ulotda o‘rganilgan Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar ma‘nosi va imlosi mavzusiga oid bilimlarni takrorlash bilan boshlanadi uyga vazifa sifatida berilgan 30 – mashq tahlil qilinadi. O‘qituvchi o‘tilgan mavzuga oid nazariy bilimlarni umumlashtiradi va yangi mavzuni quyidagi ertak bilan boshlaydi.

Yangi mavzu bayoni:

Ma‘nodosh so‘zlar oilasi

Bir bor ekan bir yo‘q ekan qadim zamonda insonlarning bir birlari bilan suhbat qilib fikr almashishlari uchun so‘z paydo bo‘lgan ekan. So‘z dastlab oz bo‘lib asta sekin ko‘payib boribdi. So‘zlar shunday ko‘payibdiki ayrim narsa dastlab odamzod nomini atashda talashib qolishibdi. Uni ifodalash uchun odam, inson, kishi so‘zlari kelibdi. Odamzodning yuz qismini nomlash uchun esa yuz, bet, aft, bashara, buyumlarni nomlashda bir nechta sherik bo‘lib qolibdi. Ularning ma‘nolarida yaqinlik bo‘lsa-da, lekin ular shakl va ma‘no jihatdan farq qilar ekan. So‘zlar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik yuzga kelibdi. Chunki ularning hammasi ham shu narsa - buyumning nomi bo‘lishini xohlar ekan-da. Ular turq, chehra, jamol, oraz, ruxsor so‘zlari yig‘libdi. Shunga o‘xshash holat boshqa atamalarda ham yuz beribdi. Ular hech kelisha olishmabdi. Oxiri so‘zlar jam bo‘lishib, Ota so‘zning huzuriga yo‘l olishibdi. Ota so‘z ularning arzini tinglab, uzoq o‘yga cho‘mibdi va shunday debdi: Sizlar talashib – tortishmang. Hammangiz ham narsa-buyumlarning, belgi va harakatlarning nomi bo‘lishga turli darajada haqlisiz. Masalan, sen, chehra so‘zi, faqat yaxshi ma‘noda qo‘llanasan, odam bir-birlari bilan xafalashganda, achchiqlashib qolganda esa aft, Bashara, turq kabi so‘zlarni qo‘llashadi . Orangizda yuz so‘zi ko‘proq ishlatiladi. Unda ijobiy ma‘no ham salbiy ma‘no ham sezilmaydi. Mana, ko‘ryapsizmi, sizlar shu narsaning nomini bo‘lishga haqlisiz, lekin turli ma‘noda qo‘llanasiz. Shuning uchun sizlarni bir oila

deb hisoblaymiz. Oilangiz nomini bir umumiy ma'noni ifodalaganingiz uchun ma'nodosh so'zlar deb ataymiz. Orangizdan biringizni boshliq qilib tayinlaymiz. Uni bosh so'z deb ataymiz. Menimcha, yuz so'zi boshliq bo'lishga haqli. Qani, yuz so'zi, do'stlaringni boshla, ahil-inoq bo'lib yashayvering. So'zlar Ota so'zning aytganlariga rozi bo'lib, orqalariga qaytishibdi. Ular shundan beri bir oila bo'lib yashashar ekan. Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalash, so'z sehrini namoyish etish, nutqni bezash, ta'sirchanlikni taminlashda kata ahamiyatga ega ekan. Har bir oilada bosh so'z bo'lib, u do'stlariga yo'l bo'shlab yurar ekan, kerakli o'rinlarga do'stlarini jo'natar ekan. Bu oilaga zid ma'noli so'zlarning juda havasi kelar ekan.

Ertak qahramonlari bilan uchrashuv

Mana, o'quvchilar, ertagimiz ham tugadi. Ertak sizlarga maqul bo'lgandir. Biz ertak tinglagan paytda yuz so'zi do'stlari bilan yo'lda ketayotib, gaplar ichiga kirib ketib qolibdi. Ular bir-birlarini izlashmoqda ekan. Kelinglar, ularga yordam beraylik buning uchun 31-mashqning sharti bilan tanishamiz mashq shartiga ko'ra qavs o'z bag'riga bir necha ma'nodosh so'zlarni olib mos so'zni topolmayotgan ekan. Kelinglar unga yordam beramiz.

O'quvchilar 31-mashqni doskadan foydalanib bajarishadi

33-mashq esa o'quvchilar bilan o'yin tarzida o'tkaziladi.

Bu o'yinning nomi "Nuqtalar o'rnini so'zlar bilan tez to'ldir" deb ataladi.

O'qituvchi o'quvchilar hukmiga qaramoq, yugurmoq, irg'imoq, yorug', sezdi kabi so'zlarni doskaga ustun shaklida yozadi va bu so'zlarning barcha ma'nodoshlari o'rniga nuqtalar qo'yib chiqadi. O'quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so'z o'rnini bo'lsa uni ma'nodosh so'zlar bilan to'ldirishadi.

Darsni mustahkamlash.

O'quvchilar biz mashqlarni bajarish bilan ovora paytimizda ma'nodosh so'zlarning bir guruhi qaygadir ketib qolibdi. Eshitishimizga qaraganda ular test o'rmoniga

yashirinib olishgan emish.O'quvchilarning navbatdagi vazifasi ularni qidirip topishdan iborat

Mashqlarni, testlarni to'g'ri bajargan va faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa : 34-mashq.

XULOSA

Kuzatish va tahlillarimizga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Maktab ona tili ta'limi o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda

og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon, ifodali bayon qilish ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qilib qo'yar ekan, bu murakkab vazifa til sathlarini o'qitishda amalga oshirib bo'lmaydi.

2. Aniqlovchi esperiment shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar nutqi sinonim so'zlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Ularning ko'pchilik qismi tuzgan matnida sinonimik imkoniyatlardan nutqiy faoliyatda yetarli foydalana olmaydi. Bu hol nutqning tushunariligi, jozibadorligi, go'zalligi va ta'sirchanligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Nutq sharoitida o'quvchi faqat leksik sinonimlarga emas, nutqiy sinonimlarga ham katta ehtiyoj sezadi. Ona tili darslarida sinonim so'zlar ustida ishlash va ayniqsa, nutqiy sinonimlardan foydalanish malakasini takomillashtirish butun ona tili ta'limi jarayoni ichiga singdirilishi lozim. O'quvchilar nutqiy so'zlarning ma'nodoshi bilan boyitish va nutqiy sinonimlar ustida ishlash «Fonetika», «Leksikologiya» va «Morfologiya»dan beriladigan bilim bilan uzviy bog'liq holda amalga oshsa, bu murakkab jarayon samarali kechadi.

4. Nutqiy sinonimlar so'zlarni ma'nodoshi bilan almashtirishdan tashqari «so'z-olmosh sinonimiyasi», «so'z-tasviriy ifoda sinonimiyasi», «so'z-ibora sinonimiyasi», «so'z-ramziy ifoda sinonimiyasi» kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu vositalar ustida ishlash o'quvchilar nutqida ko'p uchraydigan ortiqcha so'z va qaytariqga barham beradi.

5. O'quvchilar nutqini sinonim so'z bilan boyitish o'qituvchilar ish amaliyotida ko'p qo'llanayotgan usullar: sinonimik qator hosil qilish, gap yoki

matnda ajratilgan uslubiy bo'yog'i ustida ishlash bilan bir qatorda berilgan gap yoki matndagi har bir so'zni ma'nodoshi bilan almashtirish, gap yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish, berilgan matnni tahrir qilish va ortiqcha takrorlanishga barham berish, gap yoki matnda sinonim so'zlarni qo'llash orqali uni kengaytirish, sinonimlarni to'g'ri va o'rinli qo'llab turib matn yaratish bilan to'ldirilishi lozim.

6. O'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish ona tili darslarining amaliy yo'nalishini kuchaytirishni, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantirishni, mashg'ulotlarning norasmiy shakllaridan: sayohat, adabiy ertak, munozara, topqirlar bellashuvi darsi kabilardan foydalanishni talab etadi.

7. O'qituvchilar uchun tavsiya etilayotgan dars ishlanmalari, o'quv-metodik qo'llanmalarda so'zning ma'nodoshi ustida ishlash xususidam ham to'xtalishni, uning eng samarali vosita va usullarini tavsiya etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

8. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalariga o'zbek tilshunosligi nazariyasi va usuliyatidagi ham malaka oshirish kurslarining tinglovchilariga «Ona tili va ta'limi jarayonida so'zning ma'nodoshidan foydalanish» mavzusida ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tkazish foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1990.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. 4-229 - b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni. G'G' Til va adabiyot ta'limi, 1996 yil 1-son.
4. Umumiy o'rta ta'limning DTS. O'zbekiston Respublikasi.Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. «SHarq», 1999.
5. Umumiy o'rta ta'limning ona tili dasturi. Mualliflar: H.G'.N'matov, A.Q.G'ulomov, N.M.Mahmudov, M.Abduraimov. DTS.1-maxsus son. 1999.53-104-b.
6. Abdurahmonov M, o'zbek tili o'qitish metodikasi. Samarqand, 1969. 29-b. (grammatik razbor)
7. Yo.G'ulomov, I.Rasulov, X.Rustamo, B.Mirzahmedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi»; 1975.y.
8. Olmoxonova M. Abdullaeva Y. va boshqalar. 7-8-sinflarida ona tili darslari. (metodik qo'llama) T. «O'qituvchi», 1983 y.11-12-b..
9. Roziqov O. O'zbek tilidan dars tiplari (metodik qo'llama) T. «O'qituvchi», 1976 y.
- 10.Xojieva R. 4-sinfda So'z tarkibi mavzusini o'tish. To'plam. «Ona tili o'qitish samaradorligini oshirish», T. «O'qituvchi», 1973, y. 90-97-b.
- 11.G'ulomov. A. Ne'matov H. «Induktiv» O'zbek tili dasturi, T. 1992 y.
- 12.5-sinf ona tili darsligi uchunchi nashr, T. «O'qituvchi» 2002 y. Mualliflar: G'ulomov. A. Ne'matov H. M.Qodirov, M.Abduoaimova.
- 13.6-sinf ona tili darsligi uchunchi nashr. T. «O'qituvchi» 2002 y. Mualliflar: G'ulomov. A. Ne'matov H. M.Qodirov, M.Abduoaimova.

14. Asqarova M, Qosimova K. O‘zbek tili darsligi 5-sinf uchun 16-nashr T. 1990 y.
15. A.Q.G‘ulomov., M.Qodirov. Ona tili o‘qtish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001 yil, 29-bet.
16. A.Gulomov, A.Shukurov. Ona tilidan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish., Toshkent, «O‘qituvchi», 1989 y, 90-bet.
17. Gulomov A. Ona tili ukitish jarayonida aktivlik printsiptini amalga oshirishning nazariy asoslari, Toshkent, «Fan» 1989 y, 67-bet
18. Ona tili . O‘rta maktab programmalarini (5-9-sinflar) 1988-89 o‘quv yili uchun. Toshkent, O'qituvchi, 1988 -33 bet

MUNDARIJA: